



# PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH



A wide-angle photograph of the Hagia Sophia complex in Istanbul, showing its iconic domes and minarets against a backdrop of the Bosphorus strait and distant city buildings under a clear sky.

ISTANBUL

[universalconference.us](http://universalconference.us)

# **PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH**

## **VOLUME-1, ISSUE-1**

### **Editor in Chief**

**Dr. Rajeeet Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

### **Editorial Team**

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor,REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd.  
(India)

Prof.Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and  
Technology(IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department  
of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra -Indian Institute of Technology (Indian School  
of Mines), Dhanbad; Formerly at India

## **CREATIVE METHOD OF TEACHING AS A SPORTS SCIENCE**

**Namozov Sherzod Nasimovich**  
**dzyodo - sports trainer**

### **ABSTRACT**

This research program participants by scientific concepts work exit learns sports scientific principles through context as apply through to learn special has been creative diversity research to do can Sports car through students not only of sports main principles they learn and science with sports engage in to mechanics included , but they scientific They are also learning the principles , learning for psycho-social-creative-emotional contact in the environment there is .

**Key Keywords :** STEM, science, sports, girls , minority youth , psycho-social-creative education , city schools .

### **I. INTRODUCTION**

Ours our research from sports use through to learn special has been creative diversity seeing it turns out , scientific principles learning possible has been of context car through sports, not only students major in science principles they learn, but with sports engage in mechanics , as well as they scientific principles with psycho-social-creative-emotional contact own into received environment they are learning . For example , students diary in their lives bicycle to drive , to throw they learn They are this activity competitive didn't happen and academic in terms of risk infertile in the environment they learn They are didn't know thing is this this activity done in increasing loaded scientific and mathematics principles have Primary class students this scientific and mathematician principles in context learn their diary to experiences a stranger not to be it is necessary They are golf balls trajectory they learn it principle golf ball to hit real practice with without binding.

This research direction academic and diary experiences with separate stands , students science and mathematics learning mechanism as from sports of use creative process through bridge to do can Sports learning for creative tool as to use scientific and mathematician principles , that is on the ground described program to the call answer gives , advanced from technologies use enable giver innovative and creative programs Create science literacy for increase strategies have

Persons information how again their performance and the meaning to build about present appearance offer does , information again of work one how much independent forms , that's it including logic-mathematics ; linguistic , musical ,

spatial , creative , physical kinesthetic , interpersonal and personal personality (Gardner, 1993). People to himself in the characteristic " mind " profile difference to do possible due to , education content and format in terms of different to be need instruction . Creativity human being of intelligence in the center . Development encourage creativity of education important aspect as more and more more confession (Wyse and Ferrari , 205; Collard and Looney, 2014). Creativity development to be possible , environments , physical artifacts and study activities design through is developed , of students interests and playful to research focus with separate stands (Donaldson, 2016; Davies et al others , 2013). Creative education environment flow experience is another effective science, technology , engineering and mathematics programs - training activities of students skills to adapt dependent ; talents and interests ( Rathunde and Csikszentmihalyi , 2005; National research Council , 2011).

## **2. METHOD**

Sports program for 6-8 graders intended from sports to use directed science learning for is a tool . Program practical , on request based sports present to the students experiences repertoire to develop possibility giving scientific activity after scientific concepts learning for basis as is used . A total of 8 sports existing science modules in life , on earth and science in mathematics and mathematics concepts directed . Every one module 5 weeks continue is enough Sports are golf, tennis, fencing , basketball , athletics athletics , volleyball , fitness and football health with depend Program to components school program , from school next program , teachers preparation , family enters

This group inside time series experimental in a study (Creswell, 2012), medium school students skill and concepts own into received individually in advance and next tests handed over , they in sports face came science and mathematics concepts is typical .

University Faculty of Science tools work came out Students the answers content creative that they understand to express enable giver open was Sample to questions the following examples includes : Speed the word what means ? What this speed ? Shell what ? Trajectory what ? Every one question right or was evaluated as incorrect. Every one training for four question there is was Every one's points about report in giving four question right or wrong grouped as concept. Every one module of activity At the beginning of pretests and posttests transferred, module activity At the end of managed . In advance and next one different tools tests it has been . Theirs scientific in achievements some kind of achievements there is or that there is no

determination for year was also compared. Also parents of their children in the program participation from reaching before and after from the survey was conducted . Their sports and science and mathematics between from dependence awareness to see can

### **3. CONCLUSION**

Students' concepts of science of understanding significant level to increase is based, through sports , sports students facilitate creative method provides. Concepts of science cognitive understand That's it with together, to justice directed programs science and mathematics according to all students for success news not as a sport use science and to mathematics interest and to achievements reach possible has been tool achieved is unique . This approach to science included concepts in application is a bridge and from mathematics sports perform to mechanics. Sport is unique and provides education in the process to students friendly in the environment reach for innovative approach concepts, usually theylimited experience because of to understand for very abstract and playing risk

This of the project again one to himself special feature medium school science attention and mathematics . This is the state in their schools this to the degree of attention lack of it answer will give and fills belongs to in the literature gap (Meyer, 2011). Medium school students most of the time organization of ability lack of and study conditions adaptation difficulty because of of grades fall one how many of teachers requirements through science and mathematics principles learning with sports engage in to students this transition stage help will give and reduces " cracks through falling " is likely . Devoted teachers , coaches or of bachelors one collection by itself the work or medium from school next most of the time negative course change it can't future scientists or mathematicians for previously described professionally education literature . But this of the project Beginning clearly Permanent , active participation students themselves important science and mathematics skills to teach it is possible one of time in itself early transition awareness through new horizons to expand take will come .

### **REFERENCES:**

1. Putin . V. V. Judo : history , theory , practice / V. V. Putin , V. B. Shestakov , A. G. Levitsky . Arkhangelsk : Dom " SK ", 2000. - 154 p .
2. Pismenskyi.I.A ., Koblev.Ya.K , Sytnik . V.I. Mnogoletnyaya podgotovka judoistov. M., Fizkultura i sport, 1982. 382 p .
3. Kerimov FA Sports wrestling theory and method T., 2004.

4. L.P. Matveev . Theory and methodology of physical culture. Moscow, "Fizkultura i sport", 1991. 428 p.
5. Issurin V. Block periodization. Breakthrough in Sports Training. Michigan USA : Ultimate Athletes Concepts ; 2008; p . 23.
6. Eregina.S.V . Sovremennye podkhody k obucheniyu teknike dvigatelnykh deistviy (na primere judo): Uchebnye posobie / S.V. Eregina . - Yuzhno-Sakhalinsk: Izd-vo SaxGU , 2015. 144 pages.
7. Shulika Yu.A., Koblev Ya.K., Nevezorov V.M., Skhalyakho Yu.M. Judo . S istema i borba: Uchebnik dlya SDUSHOR, sportfakov vuzov i third Olympic reserve. Rostov N / D : Phoenix , 2006.- 800 p .
8. Razokovna , OM (2023). WAYS OF CHOOSING VOCABULARY IN ONLINE MUSIC AND DANCE TERMS DICTIONARIES. *Innovative Society : Problems , Analysis oath Development Prospects ( Spain )* , 10-13.

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV METODLARI**

**Ergasheva Sarvinoz Ulug'bek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2 – bosqich talabasi

mail: [ergashevasarvinoz72@gmail.com](mailto:ergashevasarvinoz72@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta`minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rangbarangdir. Ta`lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta`lim tashkilotlaridagi har bir faoliyat turini to`g`ri tashkil qilish lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalаниш, va ularning samaradorligi haqida bayon qilingan

**Kalit so'zlar:** ta`lim tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kontseptuallik,

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.[1]

Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

- Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagи kompetentsiyadir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.

- Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash. Bunday usullar bolajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, oquvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yonaltirilgan bolishi kerak. Ta'lim dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

- Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.[2]

Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy

shartdir degan fikrga kelishib olishadi. Moliyalashtirish yuzasidan davlat muassasalari "Maktabgacha tarbiyachiga pul ketayotganda" innovatsion tashkiliy echimlarining kundalik tartibida kiramidan innovatsion tashkiliy echimlarning kunlik tartibiga kiritilishi institutning obro'sini sezilarli darajada oshiradi va rivojlanishning keyingi yo'naliishlarini belgilab beradi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o'zgartiradilar.[3] O'z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya Ota-onam jamoatchiligi, bolalar bog'chasini o'quvchilarning oilalari bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Biroq, buni yodda tutish kerak pedagogik texnologiyalar maktabgacha bolalarning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin, bir nechta qat'iy talablar berildi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Kontseptuallik, o'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.
- Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ular yaxlit, mantiqiy va ularning elementlarining tarkibiy qismlari bo'lishi kerak - o'zaro bog'liq.
- Ishlov berish - pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o'quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida, bir yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak.
- Reprodikuvchanlik – bu talabga nisbatan qo'llaniladigan o'qituvchi shaxsidan qat'i nazar, texnologiyani teng darajada samarali bo'lishi kerak.[4]

Maktabgacha ta'lim tizimini isloq qilishning rasmiy belgilari – bu maktabgacha ta'limning barcha bo'g'inlarini modernizatsiya qilishga imkon beradigan huquqiy, ma'muriy, iqtisodiy sharoitlarni o'zgartiradigan yangi me'yoriy hujjatlardir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonining tashkil etilishining o'z formatini topishga, shaxsiy modelini tadbiq etishga imkon beradigan yangi ta'lim shakllaridan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Yaqin vaqtgacha maktabgacha ta'lim muassasalarining odatiy bir hil yo'naliishdagi faoliyati, yangi texnologiyalarni joriy etish vositasida hilma –hillik kasb eta boshladi. "Ta'lim muassasasi" tushunchasi yangi "ta'lim tashkiloti" tushunchasi bilan almashtirildi. Zamonaviy hayot bizga buyurgan talablar, shuningdek maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti oldidagi oliy maqsadidir. Davlat

standartining maqsadi maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Uning vazifalari qatorida ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minumum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etish ham bor.[5]

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalga oshishi, uning moslanuvchanligi hamda talabanin shaxsiy xususiyatlari, ulaming texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalaming moslashuvchanligi, ulchaming variativligi, talaba xattiharakatlarining bosqichliligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarining intellektual va emotсionalmotivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.[6]

## XULOSA

Yuqoridagilarni sarhisob qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, XXI - asrning asosiy "ko'nikmalarini" o'zlashtirib, maktabgacha yoshdag'i bolaning shaxs sifatida shakllanishi va o'sishi jarayonida, keyingi hayotda muhim bo'lgan fundamental ko'nikma va malakalarni o'rganish osonroq bo'ladi. Texnologik yondashuv, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda keng tadbiq etish, maktabgacha yoshdag'i bolaning yutuqlarini kafolatlaydi va kelajakda ularning mакtabda muvaffaqiyatli o'qishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi istalgan pedagog va tarbiyachi, avvaldan ma'lum, hamda keng qo'llanilgan mashxur metod va texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llab ham, texnologiyaning yaratuvchisiga aylana oladi. Chunki xar bir texnologiya moxir pedagog va tarbiyachilar qo'lida yanada sayqallanib, o'zigagina xos jilo bilan nur socahadi. Zeroki xar qanday texnologiya – bu yaratuvchanlik va ijodkorlikdir. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida ishlashni o'rgangan pedagog va tarbiyachining oliy maqsadi bolaning rivojlanish paytidagi kognitiv jarayonni to'g'ri tashkil etish bo'lib qoladi. Hamma narsa bizning qo'limizda, muhimi fursatni va tashabbusni boy bermaslikdir.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos

bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat’iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtida ular o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o‘quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Usmanov Asqar Abdullayevich. “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida”
2. Azizzo‘jayeva N. N. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.y
- 3.Ziyamuhammedov, Bo‘ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y
4. Xosiyat Xusniddinovna Aliyeva. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. scientific progress volume 3 | issue 3 | 2022 issn: 2181-1601 [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)
5. R.G.Qodirov(2005). Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: (6-7).
6. “Maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion texnologiyalar” <https://doi.org/10.5281/zenodo.6386729> Fayzullayeva Iroda Baxtiyorovna

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARING IJTIMOIY MUHITGA MOSLASHUVI

**Ergasheva Sarvinoz Ulug‘bek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 2 – bosqich talabasi

mail: [ergashevasarvinoz72@gmail.com](mailto:ergashevasarvinoz72@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu tezisda maktabgacha ta'lism tashkilotlarida asosiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish ularni jamiyat bilan o'za chambarchas bog'lash bilan olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiyalar, xulq-atvor, adekvat munosabatlar, ijtimoiy moslashish muammosi, komil shaxs

Innovatsiyalar pedagogik faoliyatning o'ziga xos turi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib maktabgacha ta'lism tashkilotlarini sifatli o'zgartirishning asosiy sharti – innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarining tarbiyaviy ishlarida bola shaxsini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa tarbiyaviy jarayonlarda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bola shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy hayotga kirishidagi muammolarga to'g'ri va izchil yondashish bolaning ijtimoiy moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy moslashuv bolaning tengdoshlar guruhiga (ijtimoiy guruhga) kirishi, jamiyatda mavjud bo'lgan me'yorlar, xulq-atvor qoidalarini qabul qilish, yashash sharoitlariga moslashish, bunda o'zini anglash va rolli xatti-harakatlar, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, boshqalar bilan adekvat munosabatlar shakllanadi.

Ijtimoiy moslashuv "sotsiallashuv" tushunchasining kengroq va mazmunli shakllanishi shartidir. Ijtimoiylashtirish – bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiylashuv natijasida bolaga madaniyatli, bilimli shaxsga aylanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining natijasi bolaning maktabga tayyorgarligi hisoblanadi. Ijtimoiy moslashish muammosi butun o'quv yili davomida dolzarb hisoblanadi. Masalan, avgust-sentabr oylarida bolalar otaonalari va boshqa oila a'zolari bilan o'tkazgan yozgi ta'tildan keyin katta yoshdagi guruhga o'tadi yokimaktabgacha ta'lism tashkilotiga kelishadi. Yosh guruhlarda yuqori kasallanish ustunlik qiladi va shuning uchun ba'zi bolalar uchun

ko‘pincha yangi sharoitlarga moslashish qiyin - sotsializatsiya jarayoni cheksiz vaqtga cho‘ziladi.[1]

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga borishning boshlanishi boladan yangi ijtimoiy muhitga moslashishni, kattalar va tengdoshlar bilan aloqalarni o‘rnatishni, xatti-harakatlarning moslashuvchanligini va moslashuvchan mexanizmlarini rivojlantirishni talab qiladi. Kundalik tartib, talablar va majburiyatlar bola uchun kutilmagan holga aylanadi va shu bilan birga uni stressli holatga keltiradi. Ba’zi bolalar uchun qiyin shart-bu guruh xonasining katta maydoni, jihozlari va odatdagi uy sharoitidan sezilarli darajada farq qiladi. Bunday holda, bolani xavfsizlik tuyg‘usidan mahrum qilmaslik uchun uni kattalarga yaqinroq, cheklanganroq joyga qo‘yish yaxshiroqdir.[2] Bu, shuningdek, pedagogni moslashish davrida bolalarni kattalar bilan hissiy aloqada bo‘lgan o‘ta keskin ehtiyojini qondirishga majbur qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan dastlabki tayyorgarlikning yetishmasligi nevrologik reaksiyalarga olib kelishi mumkin:

- Emotsional holatning buzilishi;
- Uyqu va ishtahaning yomonlashishi;
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti qo‘rquvini rivojlanlantirish;
- Kasallikning kuchayishi;

Bolaning ijtimoiy-psixologik moslashuvi turli yo‘llar bilan sodir bo‘ladi va bevosita bolaning yoshiga, sog‘lig‘ining holatiga, yuqori asabiy faoliyat turiga, oiladagi tarbiya uslubiga va uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga, o‘yin ko‘nikmalarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Ko‘p jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi ota-onalarning bolani bo‘lajak o‘zgarishlarga qanday axloqiy va jismoniy tayyorlanganiga, shuningdek, bolaning individual tipologik xususiyatlariga bog‘liq xolerik va sangvinik odamlar flegmatik melanxoliklarga qaraganda tezroq moslashadi.[3] Bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish uchun ota-onalar farzandlariga yoshligidan tengdoshlarva kattalar bilan muloqot qilish san’atini o‘rgatishlari, to‘g‘ri kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Bolaning eng kichik yoshidanoq uning mustaqilligini rag‘batlantirish kerak, keyin u sog‘lom va komil shaxs bo‘lib o‘sadi. Bolaning moslashgan birinchi belgilari;

- tinch uyqu;
- boshqa bolalar bilan tayyor muloqot;
- pedagogning har qanday taklifiga adekvat javob berish;
- normal hissiy holat;

Masaru Ibukaning fikricha: “Uch yoshgacha bo‘lgan bolaga ota-onal “majburlashi” va yod olish (tushunmasdan yodlash) mos keladi, shu bois ota-onalar bolalarni yo‘naltirishi va yaxshilikka o‘rgatishi zarur. Bu yoshda bola ko‘p narsalarni anglamay, faqatgina takrorlab bilib olishi mumkin. Bu davrda bolaning miyasi tanqidiy va tahliliy qobiliyatlarga ega emas, u huddi yozilmagan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Ma’lumotni qabul qilish uchun uni tushunishi yoki anglashi zarur emas. Ammo bu paytda bola o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, u ajratmasdan faqatgina yaxshi ma’lumotni emas, balki yomon ma’lumotni ham qabul qiladi va bu uning shaxsi shakllanishida asos bo‘ladi.[5] Shu bois ota-onalar doimiy ravishda o‘zlar to‘g‘ri deb bilgan xatti-harakat usulini mustaqil ravishda nima yaxshi, nima yomonligini bilmaydigan yosh bolaning miyasiga singdirib borishlari shart. Bunga esa ota-onaning “majburlashi” ham mos keladi”

Bola jamiyatga ijtimoiy moslashishida avvalo, ota-onaning o‘rni yuqoridir. Agar ota-onal yoki yaqinlar bolani kamsitsa, masxara qilsa unda yomon odatlar shakllanishi, bolada jamoaga qo‘sila olmaslik, uyatchanlik, tortinchoqlik sifatlarini keltirib chiqarishi mumkin.[6]

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, biz farzandimizni kelajakda qanday ko‘rishni istasak, tug‘ilganidan boshlab to‘g‘ri tarbiya qila olishimiz kerak. To‘g‘ri tarbiya qilishda kerak bo‘lsa, qattiqqo‘llik ham foyda beradi, faqat bola o‘z “meni”ni taniguncha bu usul foyda beradi. “Men” tuyg‘usi shakllangan bolaga qattiqqo‘llik qilishni zararli taraflari ko‘p. Masalan, bunday holatda bolada “Men yaxshi bola emasman” degan tasavvur paydo bo‘ladi, hamda bubir qator jiddiy salbiy sifatlar(o‘ziga bo‘lgan bahoning pastligi, ko‘p narsalardan hadiksirash, kayfiyatning beqarorligi, o‘zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi va shu kabilalar)ning paydo bo‘lishiga olib keladi. To‘g‘ri tarbiya qilingan bola esa jamoaga ham, jamiyatga ham tezda moslashadi.

Umuman olganda ijtimoiy moslashuv sog‘lom bola uchun ham, nogiron bola uchun ham murakkab jarayondir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari, oilalar va butun jamiyat har qanday bolaning jamiyatga kirib kelishi va uning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanishi uchun barcha zarur choralarini ko‘rishi zarur. Yosh avlodning kelajagi bolalarning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan kattalar faoliyatining maqsadga muvofiqligi va izchilligiga bog‘liq

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5
2. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." Middle European Scientific Bulletin 10 (2021)
3. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
4. Safarov F. S. et al. Effect of a tissue biostimulator on the embryonic and post-embryonic development of lambs //Ucen. Zap. Azerbajdzan. sel'skohoz. Inst., Ser. vet. – 1969. – №. 4. – С. 69-72.
5. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter“Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
6. Zohidova S. R. Boshlang’ich va maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnalogiya, xalqaro tajriba.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567658>

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHLARIDA IZOHЛИ LUG‘ATDAN FOYDALANISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**Xolmurodova Nilufar Bobomurod qizi**

Buxoro davlat pedagogika institute Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim fakulteti boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 3-bosqich talabasi

### **Abstract**

One of the most basic dictionaries for elementary school students is an explanatory dictionary. The main task of this dictionary is to increase students' vocabulary. This dictionary also serves as a foundation in higher classes.

**Key words:** vocabulary, abstract word, precision, antonym, synonym, synonymy, vocabulary, polysemy, formativeness

### **Annotatsiya**

Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun eng tayanch lug`atlardan biri bu izohli lug`atdir. Bu lug`atning asosiy vazifasi o`quvchilarining so`z boyligini oshirishdan iborat. Yuqori sinflarda ham bu lug`at poydevor bo`lib xizmat qiladi.

**Kalit so`zlar:** lug`at, mavhum so`z, aniqlik, antonim, sinonim, ma`nodoshlik, so`z boyligi, ko`p ma`nolilik, shakldoshlik

Boshlang`ich sinflarda foydalaniladigan asosiy lug`atlardan biri izohli lug`atdir. Izohli lug`at bilan ishlashning asosiy vazifasi boshlang`ich sinf o`quvchilarining so`z boyligini oshirishdir. Ma'lumki, 6-7 yoshli bolaning so`z boyligi katta emas. Ular odatda ko`p so`zlarning faqat bitta, o`z ma`nosini biladi. Ularning nutqida aniq ma`noli (narsa-buyumni bildiruvchi) so`zlar ko`pchilikni tashkil qiladi, mavhum ma`noli so`zlar esa (masalan, *do'stlik, tinchlik, baxt*) ancha kam. Izohli lug`at bilan ishlashda lug`at ishining quyidagi umumiy metodik tamoyillariga rioya qilish kerak:

1. O`quvchilar lug`atini boyitish, ya`ni yangi so`zlarni, shuningdek, bolalar lug`atida bo`lgan ayrim so`zlarning yangi ma`nolarini o`zlashtirish. Ona tilining lug`at boyligini bilib olish uchun o`quvchi o`z lug`atiga har kuni 8 –10 ta yangi so`zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4 – 6 so`zni qo`slishi, ya`ni shu so`zlar ma`nosini o`zlashtirishi lozim.

2. O`quvchilar lug`atiga aniqlik kiritish. Bu o`z ichiga quyidagilarni oladi:  
1) o`quvchi puxta o`zlashtirmagan so`zlarning ma`nosini to`liq o`zlashtirtirish, ya`ni shu so`zlarni matnga kiritish, ma`nosi yaqin so`zlarga qiyoslash, antonim tanlash

yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarining ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutqiy faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

3. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida F. Safarov va S. Safarov tomonidan tuzilgan “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at”dan [9] foydalanish maqsadga muvofiq. Bu lug‘atda boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish kitobi darsliklaridagi o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan 2000 dan ortiq so‘z o‘quvchiga mos tarzda izohlab berilgan.

1-sinfda izohli lug‘at bilan ishlashning vazifasi o‘quvchida lug‘atdan kerakli so‘zni topish va lug‘at maqolasining tuzilishini tushunish (asosan bir ma’noli so‘zlarda) ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Lug‘at maqolasini topish va sahifa raqamini aytish musobaqa, o‘yin shaklida amalga oshiriladi.

Bolalarning lug‘at maqolasini o‘zlashtirish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Masalan, *yalpiz* so‘zini o‘rganishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Lug‘atda *yalpiz* so‘zi qanday izohlangan?
2. Izohdan keyin berilgan gaplarni o‘qing. Bu gaplardagi *yalpiz* so‘zining ma’nosi izohga to‘g‘ri keladimi?
3. *Yalpiz hidi gupurdi* gapining ma’nosini izohlang.
4. *Yalpiz so‘zini hid, barg, termoq, xushbo‘y* so‘zlari bilan bog‘lang (*yalpiz hidi*, *yalpiz bargi*, *yalpiz termoq*, *xushbo‘y* *yalpiz*).

2-sinfda izohli lug‘at bilan ishlashning vazifasi o‘quvchida lug‘at maqolasining tuzilishi tushunish, ko‘p ma’noli va shakldosh so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Shuni qayd qilish kerakki, izohli lug‘at bilan ishlashni ham so‘z darajasida, ham so‘z birikmasi, gap va matn darajasida tashkil qilish lozim.

Misol uchun, so‘z darajasida ishlaganda so‘z ma’nosini aniqlashtirishga qara-tilgan topshiriqlarni berish mumkin.

1-topshiriq. Lug‘atdan *randa*, *ufurmoq*, *hashamatli* so‘zlarini topib, lug‘at maqolasiga qarab har birining ma’nosini izohlang.

Izohlai lug‘at bilan ishslashda o‘quvchilarni so‘z ma’nosini izohlashning turli usullariga o‘rgatish mumkin. Izohli lug‘atda so‘z ma’nosni quyidagi usullarda izoh

lanadi:

- 1) jins ma’nosini bildrurvchi so‘z va tur belgilarini bildiruvchi so‘zlar orqali;
- 2) ma’nodosh so‘z keltirish orqali.

Ko‘pchilik so‘zning ma’nosini jins ma’nosini bildrurvchi so‘z va tur belgilarini bildiruvchi so‘zlar orqali izohlanadi. Masalan, beqasam so‘zi lug‘atda shunday izohlanadi: *Ipakdan to‘qiladigan yo‘l-yo‘l gulli pishiq gazlama* [ 9,19]. Bu izohdagi *gazlama* so‘zi beqasamning qaysi jinsga kirishini, *ipakdan to‘qiladigan yo‘l-yo‘l gulli pishiq* so‘zlar bu gazlamaning o‘ziga xos belgilarini anglatadi. Shuning uchun topshiriqlar izohdagi jins ma’nosini bildiruvchi yoki asosiy, umumlashtiruvchi va tur belgisini bildiruvchi yoki ikkinchi darajali so‘zlarni aniqlashga qaratilishi lozim. Buning uchun quyidagi topshiriqdan foydalanish mumkin:

2-topshiriq. So‘zning izohini o‘qing. Izohdagi asosiy va ikkinchi darajali so‘zlarni topib, tagiga chizing.

Shundan so‘ng mustaqil ravishda so‘z ma’nosini izohlashga o‘rgatishga o‘tish mumkin. Buning uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

3-topshiriq. (O‘quvchilarga ayrim so‘zlar yozdiriladi.) So‘zlarni izohlang. Izo-hingizdagi asosiy so‘z va ikkinchi darajali belgilarni ayting. Izohingizni lug‘atdan tekshiring.

4-topshiriq. Lug‘atdan so‘zlarning izohini o‘qing. Namunaga qarab berilgan so‘zlarning izohini yozing.

a) Obod – ko‘rkam binolar, chiroyli ko‘chalar, bog-u rog‘lar bilan go‘zallashgan. (Sarishta – ...)

b) Sumalak – undirib yanchilgan bug‘doy va undan tayyorlanadigan holvaytar-simon ovqat. (Lag‘mon – ...).

d) Do‘l – yumaloq muz holida yog‘adigan yog‘in. (Jala – ...).

5-topshiriq. So‘zning ma’nosini ma’nodosh so‘z orqali izohlang. Yozganingizni lug‘atdan tekshiring. Masalan, armug‘on [9, 11], baxil [9, 16], betinim [9, 19]. Bunda ma’nodoshi bo‘lgan har qanday so‘zni aytish mumkin.

Lug‘at bilan gap darjasida ishlaganda ko‘p ma’noli so‘zlar ishtirok etgan gaplarni tanlash kerak.

6-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni *mol* so‘zi ma’nolarining lug‘atda berilgan tartibiga ko‘ra yozing.

Mol (lug‘at)

1. Yirik shoxli uy hayvoni. Qoramol.
2. Bisotdagi buyum, boylik.
3. Sotiladigan narsa, buyum, tovar.

Gaplar:

1. Yigit moli yo‘lida. (Maqol)
2. Bu do‘konda oziq-ovqat mollari sotiladi.
3. Nodir mollarga o‘t terib keldi.

7-topshiriq. *O‘lja* so‘zi ishtirokida uning lug‘atda berilgan ma’nolari tartibiga ko‘ra gaplar tuzing.

O‘lja (lug‘at)

1. Dushman ustidan g‘alaba qilish tufayli qo‘lga kiritilgan narsa.
2. Ovda qo‘lga tushiriladigan, tutib yoki otib olinadigan narsa.
- 3 – 4-sinflarda o‘quvchilarni lug‘at bilan mustaqil ishlashga o‘rgatuvchi topshi-riqlardan foydalanish lozim.

Bunday topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchida izohli lu‘g‘at bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Izohli lug‘atdan faqat so‘z ma’nosini aniqlash emas, o‘quvchi lug‘atini faollashtirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga ma’nosи izohlangan so‘z ishtirokida so‘z birikmasi va gap tuzdiriladi.

2-topshiriq. (3-sinf “Ona tili” darsligidagi 40-mashqqa) *Ma’naviyat, ma’rifat, da’vogar, ta’sirchan, ma’murchilik, mas’uliyat, ta’minot, e’tiqod, ma’yuslanmoq* so‘zlarining ma’nosini lug‘atdan foydalanib izohlang. Shu so‘zlardan foydalanib gap tuzing.

Mashqda berilgan mazkur so‘zlar ma’nosini 3-sinf o‘quvchisi bilmaydi. Bu so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkazilmasa, ular hatto o‘quvchining nofaol lug‘atiga ham kirmay qoladi.

3-topshiriq. 3-sinf “Ona tili” darsligidagi 42-mashqqa. Lug‘atdan foydalanib *qur’on, qo’rg’on, mo’jiza, da’vat, so’na, mas’ul, me’mor, qit’a, so’gal, sa’va, to’ng’iz* so‘zlarining ma’nosini izohlang.

Shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi tuzing. Foydalanish uchun so‘zlar: *mustahkam, tabiat, hushyorlik, shaxs, o‘qimoq, bino, olti, g‘adir-budur, mitti, ovlamoq.*

Xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

Kuzatishlarimiz ko‘rsatadiki hozirgi kunda boshlang‘ich va yuqori sinflardagi ona tili va adabiyot darslarida lug‘atlardan foydalanish darajasi juda past. Bunday hodisaning sabablaridan biri o‘quvchilarda bolalikdan lug‘atdan foydalanish ehtiyoji va ko‘nikmasi shakllantirilmaganligidir. Shuning uchun lug‘atlar bilan ishslashni boshlang‘ich sinfdan boshlash lozim.

O‘qituvchilar tajribasini o‘rganish natijasida ona tili darslarida lug‘at ishi yetak-chi o‘rin egallamog‘i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samarador-ligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Yangi texnologiyalardan foydala-nish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug‘at bilan ishslash esa – ona tilini o‘rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri – madaniyatni o‘stirish texnologiyasidir. O‘quvchilarda lug‘atning barcha turidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu shubhasiz ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida u yoki bu lug‘atga (muammoga bog‘liq ravishda) murojaat qilish odat tusiga kirsa, lingvistik masalalarni o‘z oldiga qo‘yib, ularga ongli ravishda javob topishga tayyor bo‘lgan va bu ishni qila oladigan madaniyatli odamni tarbiyalashga asos yaratildi deb hisoblash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karima Qosimova, S.Matchonov, X.G`ulomova, Sh.Yo`ldosheva, Sh.Sariyev ``Lug`at ustida ishslash metodikasi``
2. Bobojonov Sh., Islomov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati (maktab o‘quvchilari uchun). Toshkent:«Yangi asr avlodi», 2007 – 51 b.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili 3-sinf uchun darslik. – Toshkent.: «O‘qituvchi», 2012. – 144 b.
4. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent:«Yangi asr avlodi», 2007. – 104 b.
5. Ikromova R., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent.: «O‘qituvchi», 2013. – 192 b.
6. Mengliyev B, Xudoyberdiyeva M, Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent:«Yangi asr avlodi», 2007. – 39 b.

7. Qosimova K., Fuzailov S., Ne`matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent.: «Cho‘lpon», 2008. – 128 b.
8. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1995. – 192 b.
9. Rizayev S. Imlo va talaffuz lug‘ati (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun). – Toshkent: «O‘qituvchi», 1998. – 80 b.
10. Safarov F., Safarov S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at. – Toshkent: «Fan», 2012. – 218 b.
11. To‘rayeva U., Shodmonova D. O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zлari o‘quv lug‘ati. – Toshkent:«Yangi asr avlodи», 2007. – 38 b.
12. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent:«O‘zbekiston», 2012. – 224 b.
13. Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent:«Yangi asr avlodи», 2007. – 49 b.

## **PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI**

**Quchqorova Ruhshona Sirojiddin qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 1- kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv jarayonida axborot texnalogiyalarni qo'llashda ta'lif metodlarini oshirish, ta'lif-tarbiya jarayonida kompyuter texnalogiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, o'qituvchilarning axborot texnalogiya asosida o'quvchilar bilmini nazorat qilish, pedagog qanday holada va qanday ishinchli manbalar asosida ma'lumotlar to'play olish qobiliyatini, o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnaligiya imkoniyatlaridan foydalanish malakasini shakillantirish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik mahorat, zamonaviy axborot texnalogiyalar, immitatsiya, gipermatin, multimedia, ma'lumotlar bazasi.

**Annotation:** In this article, the improvement of educational methods in the application of information technologies in the educational process, the rational use of computer technologies in the educational process, the control of students' knowledge by teachers based on information technology, what is the situation of the pedagogue and what are the effective sources the ability to collect data, the ability of teachers to use the possibilities of modern information technology are discussed.

**Key words:** Pedagogical skills, modern information technologies, imitation, hypermath, multimedia, database.

### **KIRISH**

Pedagogika tarixiga nazar tashlasak bu orqali dastlabki madrasalar, oliy o'quv yurtlari, universitetlarning ta'lif jarayoni va o'qitish sifati, o'quv rejalar o'tgan

zamon davriga mos bo'lgan . Tarbiyaning ilk bosqichlari ibtidoiy jamiyat davridayoq paydo bo'lgan.

Uzoq va boy tarixiga ega Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga boy merosini yaratib, rivojlantirib, kelajak avlodni ilimparvarlik, insinparvarlik, ochiq ko'ngillilik va umuminsoniy fazilarlar ruhida tarbiyalamoqda. Shu bilan birga hozirga zamon asrida texnika va texnologiya ta'limning bir bo'lagi. Zamonlar almashinushi ta'limga o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'lim zamonga moslashadi.

Hozirgi ta'lim muassasasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish va ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni eng muhim ko'rsatgichlaridan biri hozir sanab o'tiladigan qarorlar. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va o'qituvchilarning ko'nikma va malakalarini oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prizidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005-yil 28-sentabr PQ-191sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Kampyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 2002-yil 6-iyundagi 200-tonli, "O'qituvchi kadrlarni qayta tayyotlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2006-yil 16-fevral 25-tonli shu kabi qarorlarning qabul qilinishi davlatning ustuvor yo'naliishi sifatida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Insonlarning o'qish jarayoni faqatgina mакtabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari bilan cheklanmaydi. Inson umri davomida ta'lim olishi zarur ya'ni ta'lim uzluksizdir. Zero zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan extiyoj yanada rivojlanishi shubhasiz. Jamiyatning har qanay a'zosi kundalik faoliyatida kun-u tun uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Kunsain ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatda intellektual salohiyatga boy insonlarning yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shunday

ekan o'qituvchi ham o'z kasbiy mahoratini va pedagogik mahoratini axborot texnalogiyalari asosida bilimlarini oshirib borishi davr talabi ekanligi sir mas.

XXI asr- axborot texnalogiya asrida ta'limni axborotlashtirish har bir ta'lim muassasasidan:

- o'qitish va tehsil olish jarayinining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi boshqaruva muhitining axborotlashtirishini talab qiladi.

Zamonaviy axborot texnalogiyalari asosida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasiga olib chiqish bilan bir qatorda murakkab jarayonni yengillashtirish. Dars jarayonida zamonaviy texnik vositalardan foydalanib tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakani shakillantirilish lozim. O'quvchining mustaqil izlanish faoliyati takomillashadi va dars jarayonidagi muhit o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi. Zamonaviy kommunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanish asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o'quvchi bilan ishslash, turli xil testlar, fanga doir rivojlantiruvchi mashqlarni qo'llash mumkin.

U.SH.Begimqulov zamonaviy axborot kommunikatsiya texnalogiyalari sohasida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib kompyuter texnalogiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasalari pedagogic faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyarda axborot kommunikatsiya texnalogiyalaridan dars jadvallarini yurishda, o'quvchilarining ma'lumotlarini kiritish va shakillantirishda, o'quvchilar bilan masofaviy ma'lumotlar almashishni osonlashtirishga ko'mak beradi va undan foydalanish ko'nikmasini shakillantiradi. Tashkil etilgan muhim jarayonlarni interfaol telekonfirensiya , vertula majlislar, muhum axbotlarni o'qituvchi kampyuteri orqali tez tashkil etishlari mumkin. Ta'lim boshqarmalariga yoxud boshqa mutasaddi tashkilotlarga elektron pochta orqali ma'lumotlarni jo'natish va bog'lanish imkoniyatini yaratadi. Uzoq masofaga

ega chet el muassasalari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish zamonaviy axborot texnalogiyalar bilan yanada oson.

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida kompyuter texnalogiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'limda bunday texnalogiyalarni qo'llash eng muhim jarayonlardan biri ekanligi pedagok olimlar tomonidan tasdiqlangan. Jumladan, U.SH.Begimqulov ta'limda kampyuter axborot muhitini zamon talabiga mos keladigan darajadagi axborot bazasini yaratish kerakligini, gipermatn va multimedia, kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni, zarur axborotlarni kompyuter yordamida kiritish, tizimlashtrish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qiladigan ma'lumotlar bazasini yaratishni tashkil etadi. Shu baisdan o'qituvchi kadrlarning zamonaviy axborot texnologilalari imkoniyatlaridan samarali foydalanib bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida shu bilan birga o'qituvchilar pedagogik mahoratini zamon talabi asosida takomillashtirishga mo'ljallangan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqadi.

- Anemia : Anemia , ie same -anemia , blood reduction type It's kind of of anemias one part blood in the amount hemoglobin was clear in perception lives In this situation in man light , energy loss , blood quality increases .

- The sea level : Sea level lower oxygen transport decreases and in it oxygen not formed , this while hemoglobin the amount lowering for reason will be

- Dinner Problems : Pregnancy during dinner problems , that is in the meal damage , mazari and vitamins quantity the rest because of eaten from foods high good quality root it wo n't happen and him of blood hemoglobin quantity decreases .

If you have in pregnancy hemoglobin quantity inferiority with depends questions or concerns if so , the app is there or worthless check for therapist or to the speaker appeal to do good will be To you help give get for come , my friends !

Hemoconcentration is usually more pronounced in the last trimester of pregnancy, because the growing baby and placenta need more nutrients and oxygen. As a result, the amount of fluid in the body increases with the expansion of blood vessels and increased blood flow, but not all of this fluid is balanced in the blood volume.

Hemoconcentration is usually a normal part of pregnancy and usually does not cause serious health problems. However, sometimes with excessive hemoconcentration, complications such as preeclampsia may develop. Therefore, you should regularly undergo prenatal examinations and follow the doctor's recommendations.

If the hemoconcentration level in the blood is too high, your doctor may recommend additional tests or treatment. Drinking plenty of water, eating a balanced diet, and exercising regularly during pregnancy can also help reduce the risk of hemoconcentration.

A lower hemoglobin level in pregnancy can increase the quality of personal life and include features such as lightness, energy loss, soundness, and blood comfort.

In this case, it is advisable to determine the correct cruelty for the period of pregnancy. It is recommended to seek medical help in order to exclude the amount of hemoglobin during a definite pregnancy.

**In pregnancy of hemoglobin common quantity to decrease reason to be possible has been one how many reasons there is , for example :**

1. Iron Cramps : During pregnancy iron tightness , that is anemia , hemoglobin common the amount decrease can In this case of the organism iron as get the necessary minerals and him right use need

2. Eating of substances Lack of : Not enough to eat substances get in pregnancy hemoglobin the amount decrease can For this reason next in women hemoglobin level decrease many p without insurance will be

3. Uncertainty : Pregnancy to raise take coming uncertainty or please high level population of to pregnancy played with great risk depends will be

If you in pregnancy hemoglobin the amount that you lowered if you count , a doctor with in negotiation be and necessary benefits take get out

### **Summary**

In pregnancy of hemoglobin common quantity decrease , somehow medical reasons depends to be can For these reasons some girls for which is usually considered normal in quantities below the quantity of hemoglobin to be can Such in cases , specialist this problem about complete check and treatment for recommendation will be done . Pregnancy during a woman body usually many p amount blood work releases That's why for pregnancy during hemoglobin level most of the time fall can However , this each one a woman for each different to be possible and some Women pregnancy during anemia ( iron deficiency ) development can That's why for from pregnancy before and pregnancy during regularly respectively blood tests transfer through hemoglobin level check important If hemoglobin if the level is low , your doctor iron drugs or another treatment recommendation to do can

### **Used books**

- 1.D. A.Mamatkulov , GA Shakhmurova . Sports anatomy and biomechanics . - « SCIENCE INTELLIGENCE » Publisher - 2016.
2. Akhmedov A. Adam anatomy . — « Economy finance » . — 2007
3. Anatomy , physiology and anthropology . — T.: « Publisher » publishing house . — 2013.
4. NK Akhmedov . Normal pathological anatomy with physiology . — In the name of Abu Ali ibn Sina medicine publisher . — 1997.
5. R. Bohodirov . « Man anatomy » . — T.: « O ' Uzbekistan » . 2006
6. IK Akhmedov . « Atlas. Man anatomy » . — T.: « Uzbekistan Milliy encyclopedia » . — 1998.

**ИҚТИСОДИЁТНИНГ САНОАТ ТАРМОҚЛАРИ  
РИВОЖЛАНИШИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ  
АҲАМИЯТИ**

**БОБОМУРОДОВ НАСРИДДИН ҲАСАНОВИЧ**

*Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби тингловчиси*

Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг устувор йўналишлари миллий иқтисодиётнинг турли тармоқларига инновасион лойиҳаларни жорий етишни жадаллаштириш, жумладан, саноат корхоналари томонидан инновасион маҳсулотларни ишлаб чиқариш, бошқарувга оид инновасиялардан амалиётда кенг фойдаланиш ҳисобига юқори иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига еришиш, шунингдек, Ўзбекистоннинг глобал рейтинглардаги кўрсаткичларини янада оширишга қаратилган ҳисобланади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги” ПФ-60-сон Фармонида “Иқтисодиётга инновацияларни кенг жорий қилиш, саноат корхоналари ва илм-фан муассасаларининг кооперация алоқаларини ривожлантириш, Глобал инновацион индексда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилаш ва 2030 йилга қадар топ-50 мамлакатлари қаторига кириш”<sup>1</sup> бўйича узоқ муддатли стратегик вазифа белгиланган.

Мавзусини ёритишда зарур бўладиган айrim тушунчаларнинг мазмун-моҳиятини тадқиқотларнинг дастлабки қадамларида очиб бериш мақсадга мувофиқ деб топилди. Бу тушунчалар таянч иборалари бўлиб, ўз ичига «инновация», «янгилик», «инновацион фаолият», «инновацион менежмент» ва бошқаларни олади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида «инновация» атамасининг инглиз тилидаги «innovation – киритилган янгилик, ихтиро» сўзидан олинганлиги ҳамда икки хил мазмун касб этиши қайд этилган. Булар: «1) техника ва технологиянинг янги турларини (авлодлари) жорий этиш мақсадида иқтисодиётга сарфланган маблағлар; 2) илгор техника ва технология, бошқариш ва бошқа соҳалардаги янгиликлар ва уларнинг турли соҳаларда қўлланиши».

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги” ПФ-60-сон Фармони

Миллий энциклопедияда «инновация атамасига иккита изоҳ берилган: «а) техника ва технология авлодларини алмаштиришни таъминлаш учун иқтисодиётга сарфланган маблағлар; б) илмий-техника ютуқлари ва илфор тажрибаларга асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар, шунингдек, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланилиши». Эътиборли томони шундаки, юқоридаги ҳар икки манбада келтирилган изоҳларнинг дастлабкилари инвестициянинг таърифи бўлиб, инновацияни изоҳлашда ноўрин қўлланилган.


Яна бир манбада инновация маҳсулот ишлаб чиқариш, хизмат қўрсатиш, қурилиш, банк-молия, ижтимоий соҳа, хуқуқий соҳа, фан ва маданият соҳаси, таълим ва соғлиқни сақлаш ва бошқа соҳаларга киритилган янгиликлар сифатиша ъаъриф берилган. Аммо бу таъриф инновациянинг асл моҳиятини, яъни унинг нафақат янлигик, балки ушбу янгиликларни жорий этиш натижаси сифатидаги мазмунини очиб бермаган.

Инновациянинг этимологик келиб чиқиши ва мазмуни очиб берилган яна бир манбада «инновация – бу жамиятнинг у ёки бу соҳаларида фаолият жараёни ёки унинг натижаларини такомиллаштириш учун интеллектуал (илмий-техник) фаолият натижаларини қўллашдир» деб қайд этилган. Ушбу таърифнинг ҳам тўри қўлланилганлигини қайд этган ҳолда, шуни ҳам таъкидлаш жоизки, инновацияларни фақатгина илмий фаолият натижаларини амалиётга қўллаш жараёни сифатида тушунилиши ҳамма қат ҳам мақсадга мувофиқ эмаслигини айтиб ўтиш мумкин.

Инновацион бошқарув масалаларига бағишлиланган яна бир манбада “Инновация (янгиликларни киритиш) – бозорда сотишга мўлжалланган янги ёки мукаммаллаштирилган маҳсулот, такомиллаштирилган технологик жараёнлар ва инновацион бошқарув қўринишидаги фаолиятнинг якуний натижаси қўринишидаги илмий-ижодий фролият туридир”, деб таърифланага. Ушбу муаллифларнинг таъкидлашларича «инновацион менеджмент» инновацион жараёнларни бошқаришда қўлланилувчи тамойил, усул ва воситалар йиғиндиси сифатида намоён бўлса, «инновацион фаолият» инновацияларни яратиш ва уларни кенг жорий этиш бўйича ўзаро боғлиқ ишлар йиғиндисидан ташкил топар экан.

«Инновация» ва «янгиликлар» сўзларининг туб мазмун-моҳиятини фарқлаш зарурлигини таъкидлаган муаллифлар ичida Р.А. Фатхутдиновнинг мулоҳазалари диққатга сазовордир. Унинг таъкидлашича «янгиликлар» - бу амалий тадқиқотларнинг расмийлаштирилган натижаси бўлиб, маълум бир

соҳадаги фаолият самарадорлигини оширишни назарда тутади. «Янгиликлар» амалиётга тадбиқ этилгандан сўнг «инновация»га айланади, яъни «инновация – янгиликни жорий этишдан олинувчи якуний натижа бўлиб, бошқарув обьектини ўзгартириш ҳамда иқтисодий, ижтимоий, экологик, илмий-техник ва бошқа кўринишдаги самарани олиш мақсадини ўз олдига қўяди».



**1.-расм. Тадқиқотларнинг инновацияга айланиш схемаси.**


Мамлакатимизда чоп этилган адабиётлар ичida тадқиқотнинг таянч ибораларига берилган таърифлар ўзига хослиги билан ажralиб туради. Уларнинг бирида қуйидаги фикрлар мавжуд: «Инновация сўзининг маъноси инглиз тилидаги «innovation» сўзидан олинган бўлиб, янгилик ва янгилик киритиш деган маънони билдиради. Бу янгилик замонида янги тартибни, янги одатни, янги услубни, кашфиётни тушуниш лозим». Муаллифлар «инвестициянинг ҳаётий цикли» деб аталувчи янги атамани қўллаган бўлиб, уларнинг назарида «Янгиликнинг тузилиши, яратилиши ва тарқалиши инвестициянинг ҳаётий цикли»ни ҳосил қилар экан.

«Инновация» сўзининг асосини ташкил этувчи «Новация», яъни «янгилик» ўзаги лотин тилидаги «novation — ўзгариш, янгилиниш» мазмунидаги сўздан олинган бўлиб, илгари бўлмаган, кузатилмаган янгиликни назарда тутади: янги воқелик, ихтиро, ижтимоий эҳтиёжларни қондиришнинг янги усули. Инновация деганда янгиликни жорий этишга сарфланувчи инвестицияни тушуниш зарурлигини қайд этишган муаллифларнинг фикри ҳам диққатга сазовордир.<sup>2</sup> Уларнинг фикрича «инновация – бу янги жараён, маҳсулот ёки хизматни амалиётга жорий этишнинг натижаси сифатида қаралиши керак». Муаллифлар фикрига кўра инновацион жараён ва инновацион фаолият тушунчалари бир хил мазмун-

<sup>2</sup> <http://www.dist-cons.ru/modules/innova/section8.html>

моҳиятга эга бўлиб, улар инновацияларни яратиш, амалиётга жорий этиш ва оммлашириш жараёнларидан иборатdir.

Инновацион фаолиятнинг кейинги босқичида яратилган янгиликларни амалиётга жорий этиш ва шу тариқа инновацияларнинг ижобий самарадорлигини тъминлашдан иборатdir. Микродражада, яъни корхоналар миқёсида янгиликларнинг яратилиш манбаларига кўра уларни ички ва ташқи инновациялар турига бўлиш мумкин. Ички инновациялар корхонанинг ўзида олиб борилган илмий-тадқиқот ёки ихтирочилик фаолияти натижаси саналади. Корхонага жамият ва тармоқда эришилган янгиликларнинг натижаларини киритиш эса ташқи инновациялар деб аталиши мумкин<sup>3</sup>.



## 2.-расм. Инновацион фаолиятнинг амал қилиш босқичлари

Юқорида айтилган фикрларга назар солсак, инновацияга ҳар қандай янгилик эмас, балки эорий тизим самарадорлигини оширувчи омил сифатида қарашимизга туртки бўлади. Бироқ, шуни ҳам тъкидлаш жоизки, инновациялар ихтиrolардан фарқ қиласди.


Илмий тадқиқотлар –маълум бир сарф харажатларни маблағларни билимлар тўплами ва ғояларга айлантиrsa, инновациялар –билимлар ва ғояларни тижорат объектларига айлантириб, молиявий наф кўришни назарда тутади.

Шундай экан, инновация – илмий ишланмани амалий ифодаси, яъни ўзининг харидорларига эга ва уларга сотиладиган маҳсулотга айлантиришdir<sup>4</sup>.

Янгилик – бу инсоннинг интеллектуал фаолияти натижаси ҳисобланиб, ўзининг муайян ҳаёт циклига эга (1.3-расм).


<sup>3</sup> Янгиликларнинг яратилишига кўра классификацияси муаллиф томондан таклиф қилинмоқда.

<sup>4</sup> <https://www.terabayt.uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>



**3-расм. Янгиликнинг ҳаётий цикли ва унинг асосий босқичлари**

Янгиликлардан фарқи ўлароқ, инновациялар наф олиш мақсадида уларнинг тижорталаштирилган кўринишидир (4-расм).



**4- расм. Инновацияларнин ҳаётий цикли ва унинг асосий босқичлари[12]**

Замонавий иқтисодиёт фанида инновациялар ва уларнинг таърифу тавсифи Э.А.Уткин, И.Степанова, Л.Водачек ва О.Водачкова кабиларнинг тадқиқотлари алоҳида ўз ўрнига эга. Турли олимларнинг мазкур атама атрофида олиб борган тадқотлари уларнинг ёндашувлари билан фарқланиши мумкин. Масалан:

-иқтисоди-ижтимоий объект сифатида;

-иқтисодий, ташкилий, бошқарув ва бошқа жараёнлар сифатида;

-тижорат ва нафлилик;

-фойдали ва таъминловчи жараёнлар;

- такомиллаштирилган молиявий жараёнлар сифатида ёндашувлар.

Тижорий нафлилик ёндашуви бўйича янги ғоялар ва илмий-техникавий ютуқларни жорий этиш орқали қўшилган қиймат яратишни назарда тутади.

Тижорат ва нафлилик жараёнлари сифатида ёндашувларо пинновацияларни яратиш, амалиётга жорий қилиш ҳамда оммавий тарқатилишини таъминлашнинг бир бутун яхлит тизимини назарда тутади.

Инновацияларнинг бу ҳар хил таърифларининг таҳлили шундай хulosага олиб келадики, ўзгаришлар инновацияларнинг ўзига хос мазмунини ташкил қиласидар, уларнинг вазифаси эса инновацион фаолиятнинг асосий вазифаси бўлади.

“Инновация” ва “инновацион жараён” каби иқтисодий категориялар бир-бирига яқин бўлсада, уларни фарқловчи жиҳатлари бор. Инновацион жараён – энг аввало инновацияларни яратиш ва татбиқ этиш билан боғлиқ кўп босқичли тизимли жараёндир..

Ҳар қандай инновацион лойиҳаларни амалга ошириш янги турдаги маҳсулотлар ва хизматларни яратиш, ишлаб чиқаришва сотиш жараёнларини ташкил этиш, янги ишлаб чиқариш воситалари ва технологияларини яратиш ва амалиётга жорий этиш, хўжалик фаолиятини янги ташкилий шакллари ва бошқарув усулларини жалб этишга инвестицион манбаларни узоқ муддатли жалб қилиш ва улардан оқилона фойдаланишга асосланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Инновацион фаолият тўғрисида" ги Конуни. Ўзбекистон Республикаси Конунчилик палатаси, 07/24/2020 йил, ЎРҚ-630 сон.

2. Ўзбекистон Республикасининг 25.05.2000 й. 69-II-сон "Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида" ги Конуни (Янги таҳрири, ЎЗР 02.05.2012 й. ЎРҚ-328-сон Конуни билан тасдиқланган).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "Ўзбекисто-2030" Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022йил, ПФ-60 сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" ги Фармони.

## САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

**БОБОМУРОДОВ НАСРИДДИН ҲАСАНОВИЧ**

Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби тингловчиси

Иқтисодиётнинг глобаллашуви ва рақамлаштири қўламини кенгайтириш бир шароитда бозордаги ўзгаришларга, ташки ва ички бозор талабларига тезкор мослаша оладиган саноат тармоқларини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Миллий саноат тармоқларининг барқарор ривожланиши аҳолининг турмуш фаровонлигини ошиштга олиб келади.

Замонавий шароитларда миллий иқтисодиёт юз берадиган таркибий ўзгаришлар шуни кўрсатадики ЯИМни шакллантиришда саноат улуси 2000 йилда 14,2 фоизни ташкил этган бўлса, 2015 йилда 24,3 фоизни ва 2021 йилда 29,1 фоизга етган. Бугунга келиб саноат маҳсулоти ишлаб чифариш умумий ўсиш суръатининг 70 фоиздан ортиқроғини юқори қўшилган қийматга эга бўлган ишлаб чиқаришга йўналтирилган саноат тармоқлари ташкил этади.

Саноат тармоқлари ривожланишининг бугунги кун ҳолати таҳлили ушбу соҳада рақобатнинг изчил ўсиб бораётганлигидан гувоҳлик беради. Бугунги кунда нафақат замонавий ишлаб чиқариш технологияларига эга бўлган, балки улардан самарали фойдаланишни таъминлай оладиган корхоналаргина кескин рақобат шароитида бозорда яшовчанлик қобилиятига эга бўлишлари мумкин. Бу эса истеъмолчиларга йўналтирилган маҳсуло ишлаб чиқаришнинг қайишқоқ мослашувчан тизимларини қўллашни талаб этади.

Хозирги вақтда инновацион фаолиятконцепциясини муваффақиятли қўллаш ушбу муаммоларни ечимини илмий асолангандан ҳолда ҳал этишни талаб қиласди. Кўпгина иқтисодчиларнинг фикрига кўра замонавий ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни инновацион фаолиятсиз тасаввур қилиб бўлмайди. У қўлланилмаган тармоқ ёки соҳа эса ўз-ўзидан ривожланишдан ва юксалишдан орқага қолаверади.

Турли саноат тармоқларни ривожлантириш стратегияларини тадқиқ этиш унинг ўзига хос умумий муаммоларни аниқлашга олиб келди

Буларга:


- техника ва технологик жиҳозларнинг маънан ва жисмонан эскириши;
- инновацияларни татбиқ этишжа малакали етук кадрларнинг этишмаслиги;

- йирик ишлаб чиқариш соҳаларида импортга қарамликнинг юқорилиги;
- соҳада инновацияларни рағбатлантирувчи меъёрий- хуқуқий базанинг номукаммаллиги;
- маҳсулот ишлаб чиқариш ва уларни сотишда инновацион ташкил этувчиларнинг паст даражаси.

“Ҳар қандай турдаги инновацияларни ишлаб чиқиши ва жорий этишнинг мақсади фаолият самарадорлигини оширишга имкон берадиган рақобатдош устунликларни олиш деб ҳисобланиши мумкин, бу охир-оқибат қўшимча молиявий ресурсларни олишда ифодаланади. Рақобат устунлигининг манбалари нафақат жозибадор бизнесга муваффакиятли инвестицияларда, балки корхона раҳбарларининг мавжуд ресурслардан тўғри фойдаланиш қобилиятида ҳам ётади” .

Моддий ва номоддий ресурслар ва юқори малакали ходимлар фаолиятининг ўзаро бирлашуви асосида инновацион маҳсулот яратилади ва уни ишлаб оммавий ишлаб чиқариш мумкин бўлади (1-расм).

“Ресурсни маҳсулотга айлантириш қобилиятидан фойдаланиш якуний маҳсулотга уларнинг уюшган ўзаро таъсири натижасида пайдо бўладиган фойдаланиш қийматининг маълум бир улушини қўшишга олиб келади. Бу қобилиятлар компетенциялардир. Қобилиятлар - бу корхона ихтиёридаги ресурслардан маълум фойда олиш имконини берувчи қобилият, тажриба, билим.” .



**1-расм. Саноат корхоналарида инновацион жараёнларнинг кечиши**

Умуман олиб қараганда инновациялар илмий тадқиқот ва бошқа соҳалардаги янгиликлар ҳамда харажатларни тежашни таъминловчи ёки уларни тежаш мақсадида шароитлар яратувчи хар қандай такомиллаштиришга даҳлдор жабха ҳисобланади. Бозорда тобора кучайиб бораётган рақобат шароитида саеноат корхоналарининг муваффақиятини уларнинг инновацион маркетинг ва менежмент фаолияти ҳамда уларнинг дастурлари самарадорлиги белгилаб беради.

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, саноат маҳсулотларига бўлган истеъмолчилар эҳтиёжини қондириш бўйича ишалаб чиқариш жараёни турли-туман усул ва ҳар-хил ишлаб чиқариш воситалари кўмагида бажарилиши мумкин. Бунда энг муҳими асосий воситалартируни, техник ва технологик ускуналарни тўғри танлаш, уларнинг оқилона мутаносиблигда бўлишини таъминлаш ҳамда ишлаб чиқариш жараёнини самарали ташкил этишга эътибор қаратилади. Булар ўз навбатида саноат корхнаси ва унинг маҳсулотлари рақобат устунликларини таъминлашда инновацион восита сифатида намоён бўладилар.

“Инновацион фаолият” ва “инновацион лойиҳалар” тушунчалари ўзаро боғлиқдир. Ривожланаётган рақобат шароитида анъанавий ривожланиш стратегиялари керакли фойда бермай, узок муддатли рақобатдош устунликларни таъминлайдиган инновацион стратегияларга зарурият туғилади. Инновацион лойиҳанинг моҳияти ва унинг асосий хусусиятлари ҳақида турли хил фикрлар мавжуд. Инновацион лойиҳаларнинг муҳим жиҳатлари рисқ, юқори даражадаги ноаниқлик, лойиҳанинг алоҳида босқичлари натижалари ўртасидаги аниқ ифодаланган муносабатлардир. Лойиҳани ҳаётий циклнинг фазаларига мос равишда тузилишга асосланиб, қўшимча равишда инновацион ғояни асослаш босқичи, шунингдек инновацияни амалга ошириш ва тижоратлаштириш босқичини киритиш таклиф этилади. Лойиҳаларни бошқариш назариясида асосий ва интеграциялашган функциялар аниқланб, уларнинг мазмуни мақолада келтирилган инновацион лойиҳанинг ўзига хос хусусиятларини акс эттирадиган изоҳлашни талаб қиласди. Инновацион лойиҳа бизнеснинг ядросини ташкил этувчи барча бошқарув тизимларига таъсир кўрсатганлиги сабабли, лойиҳани амалга ошириш жараёнида таркибий ўзгаришлар ва зиддиятларни камайтириш чораларини режалаштириш зарур.

Лойиҳаларни бошқаришда уни ташкил этиш ва амиалга оширишинг комплекс асослари ҳар қандай лойиҳа капитал маблағ сарфини талаб этишига асосланган ҳолда инвестицион лойиҳаларни шакллантириш билан

тавсифланади. Шу билан бирга, лойиҳаларнинг ўзига хослигини ва ушбу соҳани бошқаришнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттириш заруратини муҳим деб ҳисоблаймиз.

Инновацион лойиҳа - бу якуний инновацион фаолиятнинг техник-иктисодий асослари, ҳуқуқий ва ташкилий асосларини ўз ичига олган лойиҳадир.

Ўзгариш кўлами муаммонинг мураккаблигини ва режалаштирилган ўзгаришларни бошқаришни олдиндан белгилаб беради.

Ҳар қандай лойиҳа сингари инновацион лойиҳалар ҳам мураккаб ва жамланган йирик, яхлит вазифалар тўпламидир. Лойиҳа мақсадларининг асосий тўплами ташкилий, бошқарув, ижтимоий-маданий, техник ва технологик жиҳатлар бир-бири билан тўлдирадиган ва ўзаро таъсир қиласиган янги бошқарув услубини белгилайди. Лойиҳа фақатгина унинг обьектини эмас, балки келажакдаги фаолият обьекти атрофидаги барча алоқаларнинг ҳам ўзаро уйғунлашган тизимини назарда тутади.

Ҳар қандай лойиҳанинг чегаралари мавжуд бўлиб, у мураккаб, риск билан боғлиқ бўлиб, янги, динамик, стратегик аҳамиятга эга, аниқ мақсад билан яратилади. Шу асосда, лойиҳалар инновацияларни яратиш вазифаларига айнан мос бўлган ташкилот шакли деган хulosага келиш мумкин. Асосан, лойиҳаларни қуидагиларга бўлиш мумкин: ташқи ва ички гурухлар қатнашадиган ташқи лойиҳалар; фақат корхона ходимлари ишлайдиган ички лойиҳалар; концептуал лойиҳалар ва амалга ошириш учун лойиҳалар.

Инновацион лойиҳаларни амалга оширишнинг турли хил варианtlари ишлаб чиқилган. Улар ечимларни топиш ва сифатини сезиларли даражада яхшилашга ёрдам беради. Концептуал лойиҳа натижаларига қўра, лойиҳани амалга ошириш учун зарур бўлган қарор қабул қилинади. Табақлаш бўйича фарқлаш лойиҳани ишлаб чиқишида асосий мезондир. Мураккабликни баҳолаш учун қуидаги мезонларни таклиф қилишади: турли хил иш пакетлари (хужжатлар); пакетли тармоқдан фойдаланиш; банд бўлган ишчи гурухларнинг сони; лойиҳани амалга оширишда хатарларни ҳисобга олиш; янгилик; вақти ва муддати; ресурслардан фойдаланиш.

Лойиҳани бошқариш асосан лойиҳаларни режалаштириш, назорат қилиш, бошқариш ва ташкил этиш, шунингдек, лойиҳа гурухини мувофиқлаштириш ва бошқариш сифатида тушунилади.

Лойиҳанинг мақсадини белгилаш босқичи ғоянинг ривожланиш босқичи ҳисобланади. Дастреб мақсад ва вазифалари аниқланиб, лойиҳани амалга ошириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилади. Бу ерда эксперимент ўтказиш жойи, ахборотни излаш, мунозаралар ва бошқалар муҳимдир. Лойиҳанинг тайёргарлиги давомида қўйидагилар турли хил интенсивлик билан амалга оширилади: таҳлил, концепция, лойиҳалаш, ривожланиш. Ушбу концепция лойиҳа ишининг кўламини аниқ кўрсатади. Ушбу босқичда бозор таҳлиллари олиб борилади, муқобиллар ва вариантлар таклиф этилади ҳамда гуруҳларда муҳокамалар ўтказилади. Лойиҳа гуруҳлари таҳлили стратегик лойиҳаларни бошқариш учун ҳам амал қиласди.

Ушбу ёндашув нафақат маҳсулот яратилишининг горизонтини ва бозордаги имкониятларини кенгайтиради, балки уни амалга ошириш имкониятларини ҳам оширади. Янги маҳсулотнинг ривожланиши ҳар доим қимматроқ бўлгани учун, концепциянинг бутун жараённинг асоси эканлигини ва шунга мос равишда субсидиялашни ёдда тутиш керак. Молиялаштириш дикқат билан хужжатлаштирилиши керак.

Инновациялар иқтисодий табиатига кўра маҳсулот ва хизматлар бозорида таклиф этиладиган янгиликларнинг илмий-техник талабларга нисбатан устуворлиги билан тавсифланади. Киритилаётган инновация янги технологик жараёнларга тааллукли бўлса ундан олинадиган иқтисодий наф бозорда сотиш орқали олинади. Инновацияларни киритган тадбиркор патент ёки лицензиялар билан ўз хукукий манфаатларини ҳимоя қиласди. инновацион лойиҳани амалга оширишнинг муҳим босқичларидан бири сифатида қараш лозим.

Агар ўзгаришлар устувор хатти-ҳаракатлар, мезонлар ва бошқарув элементларига нисбатан янги талабларни талаб қиласа, қаршилик юзага келади. Шунинг учун, қаршиликни камайтириш чораларини кўриш лозим. Лойиҳалар доирасида инновацияларни бошқариш мақсадни аниқроқ шакллантириш ва белгиланган вазифаларни ҳал қилишда керакли ходимларни жалб қилиш туфайли қаршиликни камайтириш мумкин.

## **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Инновацион фаолият тўғрисида" ги Конуни. Ўзбекистон Республикаси Конунчилик палатаси, 07/24/2020 йил, ЎРҚ-630 сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг 25.05.2000 й. 69-II-сон "Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида"ги Конуни (Янги таҳрири, ЎзР 02.05.2012 й. ЎРҚ-328-сон Конуни билан тасдиқланган).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги "Ўзбекисто-2030" Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022йил, ПФ-60 сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" ги Фармони.

## **САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ БОШҚАРИШДА РАҶАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ**

**РАДЖАПОВА ЛАТОФАТ САРДАРОВНА**

*Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби тингловчиси*

Жаҳонда саноат маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи корхоналарни трансформациялаш ва улар фаолиятини такаомиллаштиришда экологик ва инновацион ривожлантириш талабларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Дунёда сифатли ва хавфсиз саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни экологик ва инновацион талабларга мувофиқ трансформациялаш, унинг сарамарадорлигини ошириш, шулар билан бир қаторда ижтимоий самарани оширишга йўналтирилган чора-тадбирлар кенг кўламда олиб борилмоқда.

Ҳозирги кунда иқтисодиётни рақамлаштириш ахборот технологияларни жорий этиш кўлами билан чамбарчас боғлиқ бўлсада у бир қатор ташкилий ва стратегик ўзгаришларни ҳам тақозо этади. Шунинг учун ҳам айни пайтда, рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда янгича инновацион иш услугига ўтиш, янги ахборот ва коммуникацион технологиялар ёрдамида ташкилий жиҳатдан янгилашга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти таъбири билан айтганда, “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориши имкониятини беради.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030”Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармонида “2030 йилга қадар иқтисодиёт ҳажмини 2 баробар ошириш, Иқтисодиётда трансформация ва институционал ислоҳотларни изчил давом эттириш, мамлакатда қулай инвестицион ва ишбилармонлик мухитини таъминлаш”<sup>1</sup> бўйича узоқ муддатли стратегик вазифа белгиланган.

Юқорида келтирилган вазифалардан келиб чиқиб, давлатимиз раҳбарининг фармони ижросини таъминлаш бўйича саноат корхоналари бошқарувида рақамли технологияларни жорий этиш долзарб масала эканлигига яна бирбора амин бўламиз. Саноат корхоналарида ишлаб чиқариш бошқарув жараёнига рақамли технологияларни жорий этиш, бу жараённи автоматлаштириш мураккаб бўлиб, инсондан янги билимларни талаб этади. Биз аввало саноатда рақамли технологияларни жорий этишини яхшироқ тушунишимиз учун рақамли иқтисодиётни кенроқ тушуниш ва унга изоҳ бериш мақсадга мувофиқдир. Рақамли иқтисодиёт атамасининг илмий

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030”Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармони

адабиётларда шу кунгача күплаб талқини мавжуд бўлиб, ҳозиргача фанда яхлит бир атама сифатида қайд этилмаган.


Жумладан, Халқаро консалтинг ва аудит компанияси “Делойт” таърифлашига кўра рақамли иқтисодиёт - бу инсонлар, корхоналар, қурилмалар, маълумотлар ва жараёнлар ўртасидаги миллиардлаб кундалик онлайн боғланишлар натижасида юзага келадиган иқтисодий фаолият<sup>2</sup>.

Иқтисодиёт фанлари доктори Владимир Иванов таърифича: “Рақамли иқтисодиёт – бу бизнинг ҳақиқатимизни тўлдирадиган виртуал муҳитдир” деб таърифлаган. Томск давлат университетининг профессори, Р. Мешчерьяковнинг фикрича “рақамли иқтисод” атамасига иккита ёндашиш мавжуд деб ҳисоблайди. Рақамли технологиялар асосида иқтисодиётнинг ва электрон товар ва хизматлар эксклюзив домен тавсифловчи рақамли иқтисодиёт: биринчи ёндашув “классик” деб номланиб, классик мисоллар - телетибиёт, масофавий таълим, дори-дармонларни сотиш (фильмлар, телевизорлар, китоблар ва бошқалар). Иккинчи ёндашув: “рақамли иқтисод” илғор рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда иқтисодий ишлаб чиқаришдир.

Мамлакатимиз олимларидан Гулямов С.С., Аюпов Р.Ҳ.ларнинг “Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялари” ўқув қўлланмасида рақамли иқтисодиётни қуйидагича таърифлашган. “Рақамли иқтисодиёт – жараёнларни таҳлил қилиш натижаларидан фойдаланиш ва катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш асосида турли хилдаги ишлаб чиқаришлар, технологиялар, асбоб-ускуналар, товарлар ва ҳизматларни сақлаш, сотиш ва етказиб бериш самарадорлигини жиддий равишда оширишга имкон берадиган ва рақамли кўринишдаги маълумотлар асосий ишлаб чиқариш омили деб саналган хўжалик фаолиятидир”.

<sup>2</sup> <https://www2.deloitte.com/mt/en/pages/technology/articles/mt-what-is-digital-economy.html>

Қайд этиш мумкинки, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши учта асосий сегментда кўриб чиқилади (1.1-расм):



### 1-расм. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланишининг асосий сегментлари<sup>3</sup>

Ва у қўйидаги йўналишларни ўз ичига қамраб олади:

- биг дана (**Big Data**);
- сунъий интеллект (**artificial intelligence**);
- блокчейн (**blockchain**);
- квант технологиялари (**quantum**);
- ишлаб чиқариш технологиялари (**Industrial technology**);
- саноат интернети (**industrial internet**);
- робототехника (**robotics**);
- симсиз алоқа (**wireless connection**);
- виртуал реаллик (**virtual reality**).

Бугунги кунда анъанавий иқтисодиётдан рақамли иқтисодиётга ўтаётган бир пайтда саноат корхоналарини рақамлаштиришга бўлган эҳтиёж ҳам кундан кунга ортиб бормоқда, чунки йирик тармоқларда юзага келадиган катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш муаммосини факат рақамли технологиялар ёрдамида ҳал қилиш мумкин.

Ҳақиқатан ҳам, бугунги кун талабларига жавоб берадиган саноат маҳсулотлари ва хизматларини яратиш орқали мамлакатнинг иқтисодий рақобатдошлигини ошириш мумкинлиги, инновацияларни амалиётга жорий

<sup>3</sup> Тадқиқотчи томонидан ишлаб чиқилган.

этилиши ишлаб чиқаришни ривожлантиришда хар доим катта аҳамият касб этган.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Инновацион фаолият тўғрисида" ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси, 07/24/2020 йил, ЎРК-630 сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли ““Рақамили Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Таракқиёт стратегияси тўғрисида//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги **ПФ-158-сон** Фармони.

## РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ТҮРТИНЧИ САНОАТ (САНОАТ 4.0) НИ ЖОРЙИ ҚИЛИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

**РАДЖАПОВА ЛАТОФАТ САРДАРОВНА**  
*Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби тингловчиси*

Хозирги кунда иқтисодиётни рақамлаштириш, айнан, ақлли ишлаб чиқаришга, яъни Саноат 4.0. га ўтиш энг долзарб жаҳон тренди саналади. 2020 йилда “KPMG” томонидан ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, деярли 95 фоиз Раҳбарлар рақамлаштириш саноат корхоналарида ишлаб чиқаришда самарадорликни ошириш ва бизнесни ривожлантириш учун катта имконияти деб ҳисобламоқда. Сўровда қатнашганларнинг 60% дан ортиғи рақамлаштириш кўшимча иш ўринларини яратишга ёрдам беради деб ҳисоблашишади.

Мутахассисларнинг фикрига кўра ривожланаётган давлатлар “Рақамли иқтисодиёт” дастурида асосий эътибор хизмат кўрсатиш соҳаси ва давлат бошқарувини рақамлаштиришга қаратилган бўлса, ривожланган хорижий мамлакатларда давлат иштирокида асосий эътибор саноатни рақамлаштиришга қаратган.

Бугунги кунда саноат корхоналарида Индустря 4.0 ни ишлаб чиқаришни барча соҳаларига жорий қилиш бўйича Шимолий америка минтақасида 36 фоиз кўрсатгич билан АҚШ етакчилик қилмоқда (General Electric, Boeing, Tesla). Кейинги ўринларни Фарбий Европада Германия ва Швейцария (Siemens, ABB, BMW, SAP) 27 фоиз билан иккинчи ўрин, Осиёда Хитой ва Япония (Huawei, Alibaba Group Toyoto, Fanuc) 20 фоиз билан учунчи ўринни эгаллаган.



<sup>1</sup> Which region is ahead with Industry 4.0 adoption? <https://iot-analytics.com/industry-4-0-adoption-2020-who-is-ahead/>

АҚШдан фарқли тарзда Европа ва Осиё мамлакатларида Индустря 4.0 ни жорий этишга қаратилған ҳукумат даражасида ташаббуслари мавжуд<sup>2</sup>.

“Fortune Business Insights” маълумотларига кўра Саноат 4.0 бозори ҳажми 2022 йилда 101,69 миллиард долларни ташкил қилған бўлса, 2028 йилга келиб ҳалқаро бозор ҳажми 337 млрд яъни 16 фоизга ўсиши кутилмоқда<sup>3</sup>. “Индустря 4.0” татбиқ этилиши, анъанавий саноатдан фарқли равишда бир қанча афзалликларга эга бўлишга ёрдам беради. Масалан, компаниялар мижозларнинг хоҳишларига қараб қараб, буюртмаларга индивидуал ёндашишлари мумкин.

Анъанавий завод ва фабрикалар ҳозирда “ақлли” корхоналарга айланиб, хос буюртмаларга кўра донабай маҳсулотлар ишлаб чиқаришни бошламоқда. Бунда, бир дона маҳсулотни ишлаб чиқариш учун кетадиган харажатлар камайиб, компаниялар оммабоп стандартлаштирилган маҳсулот нархида хосланган ноёб маҳсулот ишлаб чиқариш имконига эга бўлмоқда. Мисол учун, дунёning исталган нуқтасидан мобил қурулмангизга Nike иловасини юклаб олиб ёки компания сайтига кириб, кроссовка моделини танлашингиз, ўзингиз ёқтирган футбол командаси рангига бўяшингиз, пулини тўлаб, бир неча кундан кейин уни қабул қилиб олишингиз мумкин. Етказиб бериш харажатини ҳисобга олмагандা, унинг қиймати ушбу компаниянинг оддий оммабоп кроссовкасидан қиммат бўлмайди.

Бундан ташқари саноат тармоқларининг кўплаб соҳаларидан мисоллар келтириш мумкин жумладан, Саноат 4.0 дастурини жорий этган етакчи компаниялар бири “General Electric” - энергия, соғлиқни сақлаш ва транспорт каби муҳим соҳаларда саноат машиналарида дастурий таъминот етказиб бериш билан шуғулланадиган компания. Мазкур компания буюмлар интернети соҳасидаги етакчи сифатида “GE Predix ins” (саноат машиналардан маълумотларни йигиш учун дастурий платформа) яратди. Бу булатли технологияга асосланган бўлиб “Platform-as-a-Service-PaaS” хизмати бўлиб, саноат миқёсидаги завод фаолиятини таҳлил қилиш ва жараёнларни оптималлаштиришни осонлаштиради. Бундан ташқари, “General Electric” шамол энергетикаси сектори учун “Digital Wind Farm” технологиясини ишлаб чиқди. Бунда сенсорлар орқали, тармоқдаги маълумотлар таҳлиллари ёрдамида шамол турбиналарга мослаштирилган дайстурлар яратади. Бу уларга максимал самарадорликка эришиш ва йиллик энергия ишлаб чиқаришни 20% гача ошириш имконини беради.

“Schneider Electric” энергияни бошқариш ва автоматлаштириш соҳасида дунёда етакчи ҳисобланади. Саноат 4.0 соҳасида “Schneider Electric” компанияси “Accenture” консалтинг компанияси билан биргаликда рақамли инновацияларни илгари суриш ва янги маҳсулотларни тижоратлаштиришни

<sup>2</sup> Industry 4.0 Adoption 2020 – who is ahead? <https://iot-analytics.com/industry-4-0-adoption-2020-who-is-ahead/>

<sup>3</sup> Fortune Business Insights <https://www.globenewswire.com/en/news-release/2022/05/24/2449092/0/en/Industry-4-0-Market-USD-337-10-Billion-by-2028-at-a-16-4-CAGR.html>

тезлаштириш дастури бўлган “Digital Services Factory DSF” ни ишга туширди. Рақамли хизматлар дастурини амалга ошириш орқали компания рақамли хизматларни яратиш ва ишга тушириш вақтини 80% га қисқартирди.

“Semiens” - саноат 4.0 дастурини жорий этиш бўйича етакчи компаниялардан бири бўлиб, бир вақтнинг ўзида бошқа компаниялар учун ҳам, ўз фабрикалари учун ҳам Саноат 4.0 ечимлар тақдим қилувчи сифатида танилган. Энг кўзга кўринган мисоллардан бири Германиянинг Аугсбург шаҳридаги Fujitsu Siemens заводи компьютер тизимлари ва серверлар муайян буюртмачи учун айнан донабай ишлаб чиқарилади. Ниҳоят даражада автоматлаштирилган корхонада индивидуал буюртма асосида ишлаб чиқарилган маҳсулотга кетадиган харажатларнинг миқдори ошиб кетмайди – агар олдин икки жуфт крассовка учун ускуналар қўлда қайта созланган бўлса, хозирда буни комьютер тизимининг ўзи бир неча дақиқада амалга оширади.

Тўртинчи саноат инқилоби нафақат алоҳида компанияларнинг бизнесини ўзгартирмоқда, балки глобал миқёсдаги кучлар мутаносиблигига таъсир қилмоқда. Бунга мисоллар талайгина, жумладан Tesla компанияси асос солинганига 20 йил ҳам бўлмаган, иккинчи саноат инқилобининг етакчиси бўлган, иккинчи саноат инқилобининг етакчиси бўлган “Ford Motors” компаниясидан капитализация миқдори бўйича ўзиб кетишини кимнинг хаёлига келибди дейсиз. Узоқ тарихга эга бўлган ҳамма компаниялар ҳам бу радикал ўзгаришларда жон сақлай олмайди. Хусусан, америка статистика маълумотлирига кўра, 2000 йил Fortuna 500 дан ўрин олган компанияларнинг 52%дан кўпроғи ҳозирги кунга келиб мавжуд эмас. Яна бир муҳим кўрсаткич: Standard & Poor’s 500 га кирадиган компанияларнинг ўртacha умр узунлиги 1960 йилда 60 йилни ташкил қилган бўлса, 2020 йилга келиб 12 йилга қисқарган. Етакчилик муддатининг бундай беш карра қисқаришининг сабаби – бутун бизнеснинг, жумладан, сервис бизнесининг рақамли асосларга ўтиши билан содир бўлмоқда.

Янги технологияларни мувафақиятли ўзлаштира олганлар икки бора ютадилар: истеъмолчилар томонидан машҳур брендларга нисбатан қизиқиш катта бўлади ва агар улар мижозларга индивидуал ёндошувда ишлашни бошлашса, мижозлари уларга кейинчалик ҳам содик қолишга тайёр бўладилар.

Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки мамлакатимизда ҳам Саноат 4.0нинг муҳим технологияларидан ҳисобланган сунъий интеллектни жадал ривожлантириш борасида кўплаб ишлар олиб борилмоқда 2021 йилнинг 17 феврал куни “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги президент қарори қабул қилинди. Қарорда сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича 2021-2022 йилларда амалга ошириладиган тажриба-синов лойиҳалари рўйхати тасдиқланди. Лойиҳада қуйидаги соҳаларда сунъий интеллект технологиялари қўлланиши кўзда тутилган: Қишлоқ хўжалиги соҳасида: ерни масофадан зондлаш маълумотлари асосида тупроқ ва қишлоқ хўжалиги

экинлари ҳолатини, шунингдек, қишлоқ хўжалиги техникаси, шу жумладан, комбайнлар ишини мониторинг қилишда:

Банк соҳасида: тижорат банклари фаолиятини мониторинг қилиш самарадорлигини ошириш, шунингдек, фойдаланувчиларни масофадан биометрик идентификациялаш (Face-ID) ва кредит рискларини баҳолашда;

Молия соҳасида: бюджет харажатлари, пенсия, ижтимоий ва сугурта тўловлари, шунингдек, нафақа тўловларини таҳлил қилиш ва самарадорлигини оширишда;

Транспорт соҳасида: автомобиль ҳаракатини ва транспортдаги тирбандликларни мониторинг қилишда;

Соғлиқни сақлаш соҳасида: инсон ўлқасининг компьютер томографияси таҳлили асосида пневмонияни аниқлаш ҳамда маммография таҳлили асосида қўқрак бези саратонига илк босқичда ташхис қўйиш учун.

Президент қарорига кўзда тутилишича, сунъий интеллект технологияларини жорий қилиш ва ривожлантириш департаменти тузилди.

Шунингдек, Сунъий интеллектни ривожлантириш бўйича қўшма альянс ташкил қилиниб, унга жами 200 миллиард сўм маблағ ажратилиши белгиланган. 2021 йил 1 сентябргача Очик маълумотлар портали фаолияти доирасида давлат ва бошқа маълумотлар тўпламларини олиш имкониятини тақдим этувчи рақамли маълумотлар платформаси яратилади. 2021-2022 ўқув йилидан бошлаб 5та ОТМда грант асосида “Сунъий интеллект” йўналиши бўйича кадрлар тайёрлаш бошланади<sup>4</sup>.

Бугун жаҳон ҳамжамияти иқлим ўзгаришини инсоният олдида турган энг жиддий муаммолардан бири деб тан олмоқда. Индустрй 4.0 технологиялари ишлаб чиқариш ва таъминот занжири жараёнларидан олинадиган маълумотларни таҳлил қилиш орқали энергия ва ресурслар истеъмолини камайтириши, атроф-муҳутга заҳарли газларини чиқаришга йўл қўймаслик. Маҳсулотларни қайта ишлатиш ёки қайта ишлаб чиқариш учун уларнинг таркибий қисмларига қисмларга ажратис каби имкониятлар ҳам тақдим этади<sup>5</sup>.

Саноат 4.0 ни татбиқ этиш замонавий илм-фан ривожини талаб этади ҳамда корхоналарни юқори самарадорликка эришишига хизмат қиласи. Саноат 4.0 дастурини жорий этиш корхоналарга қуидаги афзалликларни беради:

Ишлаб чиқариш таннархини пасайтириш, юқори даражадаги ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этиш ва маҳсулот сифатини узлуксиз назорат қилиш;

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 17.02.2021 йилдаги ПҚ-4996-сон Сунъий Интеллект Технологияларини Жадал Жорий Этиш Учун Шарт-Шароитлар Яратиш Чора-Тадбирлари Тўғрисида

<sup>5</sup> Industry 4.0 Technologies: What Is Your Potential for Environmental Management?  
<https://www.intechopen.com/chapters/70130>

Камроқ ишчи кучини ва инсон омилини талаб этган ҳолда кўпроқ даромад олиш;

Кучли рақобатбардошлиқ, бозор талаби ва ўзгаришига мослашувчанлиги;

Энергия сарфини тежамлилиги ва бошқа саноат турларидан камлиги;

Ишлаб чиқариш жараёнларни ва циклларини назорат қилиш қулайлиги.

Маҳсулотларни ишлаб чиқаришдан то истеъмолчигача бўлган ҳаёт айланиш даврини кузатиш имконияти.

Демак, Саноат 4.0 дастуридан фойдаланиш корхона учун жуда самарали бўлиб, бутун жараён рақамли технологиялар асосида юритилиши, мижозлар талабга мос маҳсулот турларини ишлаб чиқариш имкониятини кенглиги, маҳсулот сифатини назорат қилиш ва такомиллаштириш имкониятини юқорилиги муҳим аҳамият касб этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Инновацион фаолият тўғрисида" ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси, 07/24/2020 йил, ЎРҚ-630 сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли ““Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида//Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармони.

## **“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI BA’ZI ETNONIMLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

**Xosiyat BAYMURATOVA,  
UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi**

Etnonim o‘z tahlillarida tilshunoslikdan tashqari tarix, etnografiya, geografiya, psixologiya, dinshunoslik va boshqa fanlarning ilmiy usullaridan ham foydalanadi.

Har qanday etnonimning o‘z ma’nosi bor. Ko‘pgina etnonimlar juda qadimiyo so‘zlar bo‘lganidan xalqlar etnogenezini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega... Odatta xalqlar, shuningdek, qabilalar, yirik urug‘larning nomlari qadimiyo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq kabi millat nomlari, qo‘ng‘iroq, mitan, qangli, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug‘qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari uzil-kesil hal qilingan emasligini professor S.Qorayev ilmiy izohlab o‘tgani.

Etnonimlar xalq tarixi va tili uchun qimmatbaho material hisoblanadi<sup>1</sup>. “Firdavs ul-iqbol”da dunyo yaralishidan boshlab to XX asrga qadar uchraydigan etnonimlar mavjud. Ma’lumki, etnonimlar tarix taqozosи bilan vujudga kelgan bo‘lib, ma’lumot-axborot tashish uchun xizmat qiladi. Etnonimlarni o‘rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Biron-bir hududda o‘tmishda qanday xalqlar yashaganligi, muayyan etnonim qaysi xalq, elat, qabilani bildirganligini bilish uchun ham etnonimlarni, ayniqsa, tarixiy asarlarda uchrovchi urug‘, qabila nomlarini tadqiq qilish ilmiy ahamiyatga egadir.

Insoniyat bir necha ming yillar davomida ayrim-ayrim holda urug‘ bo‘lib, keyinchalik esa hududiy-dialektal umumiylig hosil qilib, qabila-qabila bo‘lib yashagan. “Odam”, “inson”, “o‘zimizning kishilar” kabi ma’nolarni anglatgan ar (er), mann (men) tipidagi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo‘lgan. Bir qancha etnonimlar “haqiqatan odam”, “rostakam inson” degan ma’nolarni bildiradi. Tatar, hazar, majar, avar, bulg‘or kabi xalq va qabila nomlari tarkibidagi ar (er), ir qo‘sishimchasi eroniy tillardan birida «odam» degan ma’noni bildirgan va keyinchalik turkiy tillarga o‘tgan.[S.Qorayev] “Firdavs ul-iqbol”da qo‘llangan etnonimlarning ko‘pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lgan. Asar tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib

<sup>1</sup> ЭТНОНИМ. – М.: Наука, 1970.; Кораев С. Этнонимика. Тошкент: Ўзбекистон, 1979. 10-11-6.

chiqqan. Munis va Ogahiyalar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning ma’nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko‘p holda ilmiy jihatdan munozarali bo‘lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko‘rinishi sifatida diqqatga molikdir. “Firdavs ul-iqbol”da o‘z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning ko‘pchiligi lisoniy jihatdan tahlil qilinganda, ular turkiy, eroniy, mo‘g‘ul va arab tillariga mansub ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Asarda keltirilgan etnonimlar orasida tarkibida kishi ismlari, nasl-nasablari ham uchraydi: Alieli, Jamshidiy, Jo‘chi eli, To‘qtomish, Hasan eli, Xorazmiylar, Qaroahmad, chig‘atoy, qaroxonli, shayx, Eshquli qo‘ng‘iroq kabilar: “...Va Berka Sulton chig‘atoy elig‘a chapovul urub, diyorig‘a yondi”; **joy nomlaridan** kelib chiqqan etnonimlar ham bor: orolli, soylik va boshqalar. O‘zbek etnonimlarini semantik jihatdan bir necha guruhga bo‘lish mumkin, chunonchi, biron **kasb-hunar** nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: bolg‘ali, bo‘zachi, bakovul, tevachi, iyarchi (egarchi), qangli, qongli, qanqli, sayot (sayyod-ovchi), tulkichi, zargarlik, mirishkor, po‘Latchi va boshqalar. Tarkibida rang-tusni ifodalovchi so‘zlar mavjud etnonimlar: ko‘ko‘zakli, olosha (soriq), Soriq, soruq, qaroxo‘ja, qizilbosh, qizilboshiya, eski, Tarkibida sonlar mavjud etnonimlar: to‘rtqaro, uch o‘q, o‘n to‘rt urug‘, yuz, ming nayman, va boshqalar. “Andoqkim, uyg‘ur, nayman, bir to‘pa. Do‘rmon, yuz va ming jamoasi uyg‘urg‘a qo‘shuldi”.

Asarda qo‘llangan urug‘larning o‘ziga xos etimologiyasi bor. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz va shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, quyidagi etnonimlar etimologiyasi haqida keltirilgan fikrlar turli manbalarga suyanib yozilgan, binobarin aksariyati bir to‘xtamga kelingan variantlar emas.

**Abdol** urug‘i Hindiston, Afg‘oniston va xususan O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o‘ynagan qadimiy xalq-eftalit, ya’ni haytallarning avlodidir. Haytallar (eftalitlar) Suriya, Yunon manbalaridayoq abdel deb atalgan.

Tarixchi Bal’amiy (X asr) fikricha, haytal so‘zi Buxoro tilida “pahlavon”, “jasur odam” degan ma’noni bildiradi. “Abdoldin Muhammadqilich bahodir aqo-inilari bila, uyshundin Xo‘roz qiyshiq o‘g‘lonlari bila jinohi istijol bila ilg‘or qilib...”[FI:91].

**Barlos** – Temuriylar va boburiylar davrida, asosan, O‘rta Osiyoning janubiy hududlarida, qisman Afg‘oniston va Hindistonda yashagan, aksariyat chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan o‘zbek qabilalaridan biri[IL1: 169]. O‘zbekiston hududida, asosan, Qashqadaryo vohasida ko‘chmanchi o‘zbeklardan chig‘atoy ulusiga qo‘riqlash uchun yuborilgan 4 ta qabilalardan biri sifatida ham ma’lumotlar keltirilgan. Barlos so‘zi Abulg‘ozixonning fikricha “qo‘mondon”,

Alisher Navoiy asarlariga yozilgan “Badoye ul-lug‘at”ga ko‘ra “bahodir” degan ma’noni bildiradi. “Aning ayyomi hukumatida Erumji barlos valadi Qochuli bahodir vafot topti”[FI:70].

**Qipchoq** – kelib chiqishi jihatidan turk-mo‘g‘ullarga mansub qabila. XI – XV asrlarda Uralbo‘yi va Volgabo‘yi dashtlarida va hozirgi Qozoqistonning markaziy va g‘arbiy qismlarida yashagan, keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan ko‘chmanchi turkiy xalq. O‘zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy urug‘-qabilalardan biri [O‘TIL5:297]. Qoraqalpoq qipchoqlari o‘n to‘rt urug‘ qoraqalpoq tarkibiga kiradi.

Qipchoqlar Yangibozor, Beshyop hududlarida va Amudaryo bo‘limining Chimboy, Ko‘ko‘zak, Nukus hududlarida yashagan.

1912 – 1913-yilgi ro‘yxatdan ma’lum bo‘lishicha, Beshyopda 399, Ko‘ko‘zakda 196, Nukusda 153, Chimboyda 469, Yangibozorda 215, Navparda 68 xo‘jalik yashagan. Qoraqalpoq qipchoqlarining soni, Xiva Davlat arxivi ma’lumotiga qaraganda, 2 mingga boradi.

Qipchoqlarning ko‘pgina qismi Qipchoqyof atrofiga, Kegeylining o‘ng qirg‘oqlariga joylashgan. Qipchoq qal’a, Oqjoqish atroflarida ham qipchoq qabila urug‘larining yerkari bo‘lgan. Xiva Davlat hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, qipchoqlar 1020 xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka 224 navkar, 672 qazuvchi berishga majbur bo‘lgan. XIX asrda qipchoqlarning Pirmuhammad, Beknafas, Sarim, Rajab, Oluchi, Xoniyor, Pahlavon Niyoz, Xolmuhammad, Qulmurod kabi biylari: Jonmuhammad, Hasanboy kabi harbiy boshliqlari bo‘lgan.

“...otini Qipchoq qo‘ydi. Qadim turk tilinda ichi bo‘s sh yog‘ochni qipchoq derlar erkandur. Aning uchun ul o‘g‘lon yog‘och ichinda tug‘di teb, otin qipchoq qo‘ydilar. Bu vaqtda ham ichi bo‘s sh yog‘ochni qipchoq deytururlar. Qora xalqning tili kelmasligidan qofinchim o‘qiy tururlar”<sup>2</sup>.

“Firdavs ul-iqbol” asarida qipchoq etnonimi ham o‘zbek ham qoraqalpoq qipchoqlariga nisbatan qo‘llangan: Qangli, qipchoq bir to‘pa. Alarg‘a o‘n to‘rt urug‘ qo‘shulub, o‘n to‘rt urug‘ ot ko‘tardi.[FI:91, o‘zbek] Bu mazmun bilakim “tag‘omizdain bag‘oyat minnatdormizkim, biz xitoy-qipchoq ustig‘a ketganimizda kamoli muruvvat va do‘stlig‘din yurtimizg‘a chapovul buyurmaydurlar”

**Ochamayli (Achamayli)** – yuz urug‘ining bir bo‘lagi. Ho‘kiz yoki qo‘tosga uriladigan yoki bolalar minishi uchun mo‘ljallangan egar ochamay deyilgan. Demak, bu urug‘ning tamg‘asi egar shaklida bo‘lgan. Etnograf N.A.Aristov

<sup>2</sup> O.Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

ochamayli urug‘i och (ach) degan qadimgi qabila nomi bilan atalgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi. Ochamoyli qabilasi ba’zi manbalarda oshamoyli deb ham yuritiladi. “Firdavs ul-iqbol”da ochamoyli bo‘lib ishlatalilgan. Ochamoyli asli qoraqalpoq qo‘ng‘irotishulluk bo‘limi tarkibidagi qabila. Ushbu qabila 13 urug‘dan tashkil topgan. XIX asrning o‘rtalarida ochamoyli qabilasi 790ga yaqin xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka har yili 260dan ko‘p qazuvchi berish majburiyatini bajarib kelgan.<sup>3</sup>

Asarda ham shunday o‘rinlarda qo‘llangan: “Ul kun aholii Orolg‘a raabu haros istilo tamom topib, **ochamoyli** va **ko‘ko‘zaklikim**, Qo‘ngrotning muazzam qaboilidindur, ul ikki uruqning ba’zi akobiri suddai xilofat mulozimlarig‘a yashirin kishi yubordilar.” [364-bet]

**Tobin** (qazoq) – mo‘g‘ulcha so‘z bo‘lib, “ellik” demakdir. Umuman turkmo‘g‘ul qabila va urug‘larida raqam (son) bilan ataladigan nomlar uchraydi. Masalan, yuz, ming, do‘rmon (do‘rbo‘n – mo‘g‘ulcha do‘rt – “to‘rt”) va hokazo.

“Shavvol avoxiri(1223-yil 25-shavvol/ 1808-yil 14-dekabr)da ul qal‘adin chiqib, qazoq tavoifidin tobin elining savdogari bila kelur erdi”[FI:275]. Asarda keltirilgan mazkur parchadan ham tarixiy manbalarda keltirilgan quyidagi ma’lumotlarni ham keltirib o‘tish lozim. Tobin urug‘idan bo‘lgan qozoqlar XIX asrda Sirdaryo bilan Ustyurt yaylovidan Tobol daryosi va Orenburg dashtlarigacha bo‘lgan hududda yashaganlar. Tobinlar, shuningdek, o‘zbeklar, boshqirdlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham uchrovchi qabila va urug‘lardandir. kichik yuz qozoqlari yetti urug‘ qabilasi tarkibidagi urug‘ bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida Xorazmda xonali to‘ra tomonidan boshqarilgan. Ularning Irisboy yasovul, Eshniyoz, Sori kabi biylari va Ollosh, Jonibek kabi bahodirlari bo‘lgan.

**Mang‘it (manqit)** – o‘zbek va qoraqalpoq qabilasining nomi. Oris o‘n to‘rt urug‘ tarkibiga kirgan qabila. U qabilaga to‘rt guruhga bo‘lingan 19 urug‘ kiradi;

- a) Qoratov urug‘lari: qora mang‘it, qora siraq, oq mang‘it, moliki, ko‘sar, kilkali (xilxali);
- b) Soritov urug‘lari: orshon, jonliq, to‘q mang‘it, ersori, toza jolliq, shuyit, jomonsho, eseba, tamg‘ali, tong mo‘yin, temir xo‘ja;
- c) Bo‘ztov, oldin urug‘larning katta birlashmasi hisoblangan, hozirgi vaqtida bir urug‘ nomiga mansub bir qancha xo‘jalik mavjud;
- d) Jetimtov, eshbuga tarkibidagi urug‘ bir qishloqda qolgan.

<sup>3</sup> O. Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

Mang‘it qabilasining umumiy soni 11791 kishi hisoblangan. 70 foizi Kegaylida yashagan.

1928-yillardayoq Qozog‘istonni o‘rganish Jamiyati ekspeditsiyasining ko‘rsatishicha, ko‘p sonli mang‘it urug‘lari uch bo‘limga: oq mang‘it, qora mang‘it, to‘q mang‘itga bo‘lingan. Buxoro xonligidagi o‘zbek mang‘itlari ham uch bo‘limga: oq mang‘it, qora mang‘it, to‘q mang‘itga bo‘lingan. FIda o‘zbek mang‘itlari qoraqalpoq mang‘itlariga nisbatan ko‘proq qo‘llangan. “Qochib qutulg‘onlarg‘a xon Eshmuhammad biyning say‘i bila Yangiariqni marhamat etib, muvoidi xusravona bila diljuliq ko‘rguzdi”[FI:100].

Xiva Davlat arxivi ma’lumotlaridan aniqlanishicha, mang‘it qabilasi uch tebadan: oq mang‘it – julut onja 75 otli, 375 xo‘jalik 5 biy; Uchtoy – 59 otli, 295 xo‘jalik, 2 biy; qora mang‘it – 88 otli, 440 xo‘jalik, 4 biylikdan iborat bo‘lgan.

XIX asrning II yarmi – XX asrning boshlarida mang‘itlarning Xudoynazar va Sohib Nazar, Yusuf, Do‘stmuhammad, Usmon, Davlat kabibiylari; To‘lobbergan kabi yuzboshilari bo‘lgan.

**Qiyot** – o‘g‘uzlar tarkibiga kirgan qadimiy qabilalardan birining nomi. Abulg‘ozi Bahodirxon fikricha, mo‘g‘ulcha “tug‘dan oqqan sel” ma’nosidagi qiyon so‘zining ko‘pligidir. Qadimgi turkiy manbalar hamda eski turkiy manbalarda -t, -at, -ot affikslari orqali ko‘plik hosil qilingani ko‘pgina tarixiy leksemalar orqali ma’lum. Bu fikrni V.V.Radlov ham isbotlaydi. Bundan chiqadiki, qiyonni (qiyonli) urug‘ining etimologiyasi ham o‘scha mo‘g‘ulcha qiyon so‘zi bilan ma’nodosh, deya aytish mumkin. Mazkur urug‘ nomi asarda ham qiyot (o‘zbek), ham qiyot (qoraqalpoq), ham qiyot qo‘ngrot urug‘lari sifatida qo‘llangan.

Misol: “...Salloq sardor rufaqosi bila Qo‘ngrotni poymoli turtkoz qilib, ...qo‘ngrot va o‘zga ellardinkim, aning bila muxolifat amrida muttafiq bo‘lib erdilar, ikki yuz kishi yig‘nab, qiyot mufsidlaridin Suyunbiyning oqosi Qurbonbekni sarkarda qilib, qaroqalpoq eylotin chopturmoqg‘a namzod qildi”. (344-bet).

Qiyot qabilasi Oris qo‘ng‘irot Shulluk bo‘limi tarkibidagi qabila. Uchtamg‘ali, taroqli va bolg‘ali urug‘larining ba’zan qiyot qabila tarkibiga kirib qolganini uchratamiz.

Arxiv ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, qiyotlilar 443 xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka 88 navkar, 262,5 qazuvchi berishga majbur bo‘lgan. Taxminan XIX asr o‘rtalarida xonlikka yiliga 442,5 tilla soliq to‘langan.

Qiyotlarning Sodiq, Sayid, G‘ozi, Qodirbergan biy, Abdullo, Jumaniy, Hasan kabi harbiy boshliqlari bo‘lgan.

**Bayot** – “Bayotning ma’nosи davlatli temak bo‘lur”

**Sort** – urug‘ nomi. Sart – oktabr revolyutsiyasigacha urug‘larga bo‘lininshni yo‘qotgan bir qism o‘troq o‘zbeklar sart deb atalgan. Yevropaliklar Oktabr revolyutsiyasigacha hozirgi O‘zbekiston hududidagi mahalliy aholi vakillarini sartlar deb atashgan. Rus sayyohi Danilevskiy yozadi: “Sartlar xonlikda yashovchilarning o‘zagini tashkil etuvchi va o‘troqlikda ustunlikni tashkil etgan qabila. Osiyoliklar xivaliklarning hammasini sartlar deb atashadi. Ular shaharda yaxshi hayot kechiradilar, dehqonchilik hamda savdo ishlari bilan shug‘ullanadilar. Xon bilan qushbegini hisoblamaganda hukumat xodimlari sartlardan. Hamma vazifa – izzat-hurmat, shahar va xon mol-mulkini boshqarish ham shularga topshirilgan. Xonlikda sartlar XIX asr o‘rtalarida 20 ming xo‘jalikni tashkil etgan”.

**Misol:** Amoratpanoh va ayolatdastgoh Boltaniyoz oqo va Muhammadamin oqo va Ko‘chak arbob va Muhammad arbobnikim, **sort jamoasi** (Xorazmning asl mahalliy o‘g‘uz xalqi)ning marjai ilayh (murojaatgoh, odamlar o‘z masalalari bilan yordamga boradigan joy, kishilar)i erdilar.. (170-bet).

**Naymon xalqi** – bu yerda nayman qabilasiga mansub urug‘. “... Va kuntug‘ar bila qibla oralig‘in uyg‘ur va naymon sipohig‘a berib, Karimberdi otoliq va O‘rozali inoqning uhdasida qildi. Va qibla bila kunbotar mobaynin nukuz-manqit lashkarig‘a tavsif qildi”.

**Qo‘shtamg‘ali** – qoraqalpoq qabilasining nomi, yana shu nomda ataladigan urug‘ ham bo‘lgan. U oris qo‘ng‘iroq qabila-urug‘ segiz tamg‘ali shullik bo‘limi tarkibiga kirgan. Qo‘shtamg‘ali qabilasi yetti urug‘dan tashkil topgan. Ular Amudaryoning o‘ng qismida yashagan.

**Xo‘ja eli (Xo‘jayli)** – Munis va Ogahiyning yozishicha, Abulg‘ozixon (1643 – 1663) davrida o‘zbeklar to‘rt tepa, o‘n to‘rt urug‘dan iborat deb hisoblangan.

Xo‘jayli qo‘rg‘oni aholi yashaydigan punktlarning markazlaridan. U karvon yo‘lida joylashgani uchun Shimoliy Xorazmda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yuqorida etnonimlar haqida, uzoq tarixiy davrni o‘z ichiga olgan “Firdavs ul-iqbol” asarida uchrovchi etnonimlar etimologiyasi, ba’zi urug‘-qabilalar geografiyasi hamda ayrim ma’nosi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish orqali har qanday etimologiya, xususan, aksari qadimiy so‘zlar bo‘lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Kundan kunga unutilib borayotgan urug‘-aymoq nomlarini to‘plash, yig‘ish, ilmiy tahlilga tortish onomastikaning muhim tarmoqlaridan bo‘lgan etnonimika oldida turgan vazifalardandir.

“Firdavs ul-iqbol”da uchraydigan etnonimlar lug‘aviy tarkibiga ko‘ra ikki xil:

1. Yakka holda uchraydigan etnonimlar: mang‘it, qatag‘an, Chiychut,

qiyot, turk, uyg‘ur, o‘zbek, qozoq.

2. Tarkibida izohli so‘zlar bo‘lgan etnonimlar. Bunda etnonim urug‘, el, xalq so‘zlari bilan birgalikda keladi: ildurkin urug‘i, yasut urug‘i, budat urug‘i, ungut eli, qarluq eli, uyg‘ur eli, qiniqli eli, tatar xalqi, tibet xalqi, jaloyir xalqi kabi. “Firdavs ul-iqbol”da ishlatilgan etnonimlarning ko‘pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lgan. “Firdavs ul-iqbol” tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib chiqqan. Munis va Ogahiylar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning ma’nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko‘p holda ilmiy jihatdan munozarali bo‘lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko‘rinishi sifatida diqqatga molikdir. “Firdavs ul-iqbol”da o‘z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning ko‘pchiligi mo‘g‘ul tiliga mansub.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983.
2. Мунис ва Огаҳий “Фирдавс ул-иқбол”. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. 520 б.
3. Қораев С. Этнонимика.Т., Ўзбекистон, 1979. 23 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. Биринчи жилд. – Тошкент: Университет, 2000.
5. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Учинчи жилд .– Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли лугати.1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.;
7. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018. 248 б.
8. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 23 б

## **APPEARANCE OF ATOPIC DERMATITIS IN THE ORAL MUCOUS MEMBRANE AND LIPS IN PRE- SCHOOL CHILDREN**

**Murtazaev S.S., Eshkulova Sh.B.**

Tashkent State Dental Institute

[eshkulovashaxzoda@gmail.com](mailto:eshkulovashaxzoda@gmail.com)

Among allergic diseases in children, atopic dermatitis undoubtedly occupies one of the highest places. Atopic dermatitis is a disease that occurs equally in both sexes and in different age groups all over the world. According to various authors, the disease is widespread. [A. Baranov, 2011; Balabolkin, 2012; Lysikova, 1999]. Atopic dermatitis is often seen in the form of atopic cheilitis in dental practice. [Zykeeva, 2018] Currently, the etiopathogenesis and clinic of atopic dermatitis are well-studied, so it is possible to carry out diagnostic, etiopathic and pathogenetic treatment in children.

**The purpose of the study.** Appearance of atopic dermatitis in the oral mucous membrane and lips in pre-school children.

**Material and methods.** For the research, 20 patients under the age of 6 diagnosed with atopic dermatitis at the Republican Center for Allergology and Clinical Immunology were examined and anamnesis was collected. The examined patients were divided into 2 groups by gender: 9 girls (45%) and 11 boys (55%). Questionnaire and statistical processing methods were used in the study. Parents and caregivers of patients were informed about this study.

**Results and discussion.** 20 patients participating in the study were diagnosed with L20 atopic dermatitis according to MKB. The following symptoms of atopic dermatitis were observed on the face of the patients who applied: urticaria-15 (75%), nodule-3 (15%), erythematous-squamous rash-3 (15%), cracks in the corner of the mouth-2 (10%), tongue dryness-13(65%), tongue swelling-2(10%), lip skin transfer-1(5%), itching-4(20%), mucous membrane soreness-4(20%) hyperemia-5(25 %) papule around the lip-2(10%), itching-3(15%).

According to the results of the preliminary study, the frequency of occurrence of signs by gender was boys (55.5%) and girls (45.5%). It was found that these symptoms are  $1.21 \pm 0.2$  times more common in boys than in girls.

**Summary.** Preschool children all have symptoms of atopic dermatitis on the face. The frequency of occurrence of symptoms took the lead in boys, and this indicator was 1.21 times more than in girls. According to the latest results of the study, it is necessary

for a dentist and an allergist to carry out the necessary therapeutic treatment to eliminate these symptoms.

**Literature:**

1. A. A.Baranov- Allergology and immunology: clinical recommendations for pediatricians / A.A. Baranov [and others]. – M.: Union of Pediatricians of Russia. rev. and additional, 2011.
2. I.I.Balabolkin- Current problems of childhood allergology at the present stage-2012.
3. I.V.Lysikova- Prevalence of allergic diseases in children according to the results of multicenter studies in within the framework of the international program ISAAC: 1999.
4. Zykeeva S.K., Bilisbaeva M.O. Diseases of the tongue and lips in children and adolescents //Vestnik-2018.

## **PENNSETUM GLAUKUM (L.) R.Br. NAVLARINING XORAZM TUPROQ – IQLIM SHAROITIDA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**D.R.Annamuratova**, b.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti,Urganch  
**Bekchanova M.K**, b.f.f.d, kafedra dotsenti, Urganch davlat universiteti,Urganch  
**Sh.R.Qodirova**, magistrant, Urganch davlat universiteti,Urganch

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm tuproq-iqlim sharoitida Pennisetum Glaukum (L.) R.Br. turli nav namunalarining rivojlanish va o'sish jarayonlari davrlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** maysa, ro'vaklash, gullash, pishish, genotip, ertapishar,o'rtapishar, introduksiya.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о периодах развития и процессов роста образцы разных сортов Pennisetum Glaukum (L.) R.Br. в почвенно-климатических условиях Хорезма.

**Ключевые слова.** проросток, цветение, созревание, генотип, раннеспелая, среднеспелая.

**Abstract.** This article gives information on the periods of development and growth processes of different cultivars Pennisetum Glaukum (L.) R.Br. in Khorezm soil and climate conditions.

**Key words.** lawn, budding, flowering, ripening, genotype, early ripening, mid-ripening.

O'simliklarning turlari va navlari o'zaro irsiy xususiyatlari, vegetatsiyasining davomiyligi, morfofiziologik xususiyatlari va chidamliligi bo'yicha farqlanganligi bois, ularning biologik potentsialidan unumli foydalanish maqsadida optimal agrotexnika qo'llaniladi [2].

Afrika qo'nog'i o'simligining o'sishi va rivojlanishini ontogenezi davomida o'rganish ularni muayyan tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirishda muhim ahamiyatga ega. O'sish va rivojlanish murakkab fiziologik, biokimiyoviy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan uzlusiz bog'langan. O'sishsiz rivojlanish bo'limganidek, rivojlanishsiz o'sish ham bo'lmaydi [3].

Organizmning o'sishi o'z navbatida uning rivojlanishiga olib keladi. Masalan, o'simlik bo'yining ortib borishi o'z navbatida uning rivojlanishga olib keladi. Natijada o'simlikda poya, barg va genetik organlar shakllanadi. Bu rivojlanishning

mahsulidir. O'simliklar o'sishi va rivojlanish jarayonida ularning biologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan holatda turli fazalarni bosib o'tadi.

Afrika qo'nog'i nav va liniyalarida rivojlanish va o'sish jarayonlari quyidagi davrlarga ajratildi: maysa, ro'vaklash, gullash va pishish. Maysalash fazasi o'simlik urug'ining o'sib chiqishi bilan bog'liq. Urug'ning unib chiqishi ko'plab omillarga, uning sifatiga, tuproq unumdorliga, uning tarkibidagi suv miqdorga ayniqsa, sho'rланish darajasiga bog'liq [4,5].

Afrika qo'nog'ining o'rganilgan Xashaki-1 navida maysalash fazasi nisbatan erta boshlandi. Maysalash fazasi Xashaki-1 navida 5-kundan keyin boshlandi. Bu Xashaki-1 nav urug'ining unuvchanligi nisbatan jadal ketganligini anglatadi. Afrika qo'nog'ining L-3 liniyasida maysalash fazasi vegetatsiyasining oltinchi kunida boshlanganligi qayd etildi. Ro'vaklash fazasi Xashaki-1 navida vegetatsiyasining 52-kunida qayd etilgan bo'lsa, L-3 liniyasida 57-kunda qayd etildi. Gullash fazasi Xashaki-1 navida vegetatsiya davrining 57-kunida, L-3 liniyasida 65-kunida qayd etildi. Pishish davri Afrika qo'nog'ining Xashaki-1 navida 98-kunni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 107-kunni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib Afrika qo'nog'ining Xashaki-1 navi ertapishar L-3 liniyasi o'rtapishar deb topildi. Bu ma'lumotlar O.X. Yunusovning ilmiy tadqiqotlarida xam tasdiqlagan [5].

Afrika qo'nog'i yurtimizga introduktsiya qilingan yangi o'simlik turlaridan hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, vegetatsiya davrining dastlabki etaplarida Afrika qo'nog'i sekin rivojlanadi. Bu o'simliklarning tashqi muhitga moslashish mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Unib chiqishdan keyingi (1-2 barg hosil bo'lganida) Afrika qo'nog'ining bo'yи Xashaki-1 navida 7,85 sm ni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 6,95 sm ni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlarni o'zaro taqqoslar ekanmiz vegetatsiyaning dastlabki davrida genotiplar o'rtasida farq haqiqiy bo'lmasdi. Buni jadvaldagi statistik ma'lumotlar ham ko'rsatmoqda. Aynan shunday natija barg ko'rsatkichlar bo'yicha ham qayd etildi. Barg uzunligi Xashaki-1 navida 6,48 sm ni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 5,38 sm teng bo'ldi. Ushbu ma'lumotlardan vegetatsiyaning davtlabki davrida genotiplar o'rtasida farq yo'qligini ko'rish mumkin.

Afrika qo'nog'i genotiplarida 3-5 barg hosil bo'lganida ular o'rtasida farq qayd etilmadi. Ushbu davrda Xashaki-1 navining bo'yи 19,53 sm ni tashkil etgan bo'lsa L-3 liniyasida 19,35 sm teng bo'ldi. Ushbu ma'lumotlarni taqqoslaganda ular o'rtasida farq yo'qligini ko'rish mumkin. Ushbu davrda barg uzunligi Xashaki-1 da 10,12 sm ni tashkil etgan bo'lsa, L-3 da 13,10 sm teng bo'ldi. L-3 da barg o'sishi Xashaki-1 nisbatan jadal o'sdi. Naychalash va gullash fazasiga bo'lgan davrda

genotiplar o'rtasida keskin farq kuzatilmadi. Naychalash fazasining boshlanishida Xashaki-1 navining bo'yi 48,15 sm ga teng bo'lган bo'lsa L-3 liniyasida 46,1 sm teng bo'ldi. Mazkur fazada genotiplar o'rtasidagi farq qayd etilmadi [1].

Gullash fazasining boshlanishida Afrika qo'nog'i navlari jadal o'sdi. Buni jadvaldagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin. Xashaki-1 navining bo'yi 144,6 sm teng bo'lган bo'lsa, L-3 liniyasida ushbu ko'rsatkich 142,1 sm teng bo'ldi. Ushbu fazada o'simlikning vegetativ massasi ortdi. Xashaki-1 navida bitta o'simlikning massasi 168,3 g ni tashkil etgan bo'lsa, L-3 liniyasida 198,1 g ga teng bo'ldi. Gullash fazasiga kelib o'simlik shakllangan barg soni Xashaki-1 navida va L-3 liniyasida 8 tani tashkil etdi. Barg uzunligi Xashaki-1 navida 57,11 sm teng bo'lган bo'lsa L-3 da 49,1 sm tashkil etdi [1].

Umuman olganda, Afrika qo'nog'i genotiplari vegetatsiya davrining boshida sekin rivojlandi. Naychalash fazasining boshida va gullash fazasida o'simlik jadal rivojlanib o'zining maksimal ko'rsatkichini qayd etdi. Ushbu davrga kelib o'simliklarda o'rtacha 8 ta barg shakllandi, o'simlik massasi 168-198 g ni tashkil etdi [1].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D.R.Annamuratova, Sh.R.Qodirova. Xorazm tuproq – iqlim sharoitida pennisetum glaukum (L.) r.br. turli nav namunalarining bioekologik xususiyatlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2024-3/1. Xiva. 2024 у.
2. Давлетмуратова В.Б. Онтогенетические особенности гало-аккумулятивной адаптации растений в условиях Каракалпакстана: Автореф. дис. канд. биол. наук. Ташкент, 2002-С. 16–22.
3. Сафаров А.К. Рост, развитие и продуктивность Африканского проса в различных почвенно-климатических условиях // Сельскохозяйство, лесное хозяйство, рыбное хозяйство. Москва. 2016.-С. 25-29.
4. Методика проведения испытаний на отличимочть, однородность и стабильность. Просо Африканское (Pennisetum glaucum (L)R.Br). селекционных достижений. М.: МСХРФ. 2017. №5, -С-368-373.
5. Yunusov O.X. Jo'xori (sorghum vulgare (pers.)) va afrika qo'nog'i (pennisetum glaukum (L.) r.br) turli nav namunalarining sho'rlangan tuproq sharoitidagi fiziologik va biokimyoiy xususiyatlari. b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Buxoro. 2021.

## **XX asr Andijon adabiy muhiti haqida ayrim mulohazalar**

**Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.**

**“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” NOTM. Andijon**

**Annotatsiya.** Maqolada XX asr Andijon adabiy muhiti va unda ijod qilgan ayrim shoirlar haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar.** O’zbek adabiyoti tarixi, Andijon adabiy muhiti, Muhammadzokir Habibiy, Muhammadxon mahdum Mahjuriy, Avliyoxon mahdum, xayrabodlik Abdulahad Anisiy, bo’taqoraliq Abduvahob Sayfiy, andijonlik Imomiddin Ulfat, Abdulhamid Hurram, Solijon qori Vose’jonov, Abdulfattoh mahdum Huzuriy

O’zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotida har bir davrning, har bir adabiy muhitning o’z o’rnini bor. Turli davrlarda yetishib chiqqan ijodkor so’z san’ati taraqqiyotini takomillashtiradi, uni rivojlantiradi. Davr va shaxs muammolarini turli rakurslarda ifoda etadi. Bir xil qarashga, bir ijodiy oqimiga mansub ijodkorlar guruhi adabiy muhitni yuzaga keltiradi. O’zaro ijodiy aloqalar tufayli adabiy muhitning, qolaversa, badiiy ijodning miqyosi kengayadi. Shu o’rinda prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Andijonga tashrifi chog’ida aytilgan “Har bir hududga borganda o’sha yerning tarixini o’rganish va tiklashga e’tibor qaratmoqdamiz. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma’rifat nuqtayi nazaridan u hamon yashayapti. Bu maskanni yanada obod qilib, tarbiya o’chog’iga aylantirish zarur. O’zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo’lmaymiz”<sup>1</sup> – degan fikrlari ham Andijon adabiy muhitini yanada izchil o’rganish masalasini qo’yadi. Andijon adabiy muhiti yoki andijonlik ijodkorlar haqida gap ketganda Zahiriddin Muhammad Bobur, mavlono Yusuf, mavlono Safoiy, Nodirabegim, Samarbonu, Cho’lpon, Komil Yashin, Habibiy, Hayratiy, Oraziy, Vosit Sa’dulla, Hoshimjon Razzoqov,

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev Andijondagi «Bog‘i Bobur» istirohat bog‘ida bo‘ldi.

<https://kun.uz/uz/news/2017/06/02/savkat-mirzieev-andizondagi-bogi-bobur-istiroat-bogida-buldi>

Ulfat, Saida Zunnunova, Tursunoy Sodiqova, Qamchibek Kenja, Olimjon Xoldor, Minhojjiddin Mirzo, Muhammad Yusuf kabi el ardoqlagan shoirlar xayolimizga keladi. Ko'rindiki, Andijon xalqi ham qadimdan shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunos, tilshunos olimlar, madaniy merosga va nodir qo'lyozmalarga boy yurt hisoblanadi. Lekin tarix zarvaraqlariga razm solinganda ba'zi manbalarda qalamga olingan, lekin ijodi hali monografik planda o'rganilmagan shoirlar nomi ham uchraydi. Nafaqat o'rta asrlar, balki, XX asrda yashab ijod etgan qalamkashlar nomi ham unut bo'lгanday. Jumladan, XIX asr oxiri va XX asrda yashab ijod etgan Andijon adabiy muhiti shoirlari va yozuvchilari haqida amalga oshirilgan ilmiy va badiiy-publitsistik ishlar kam sonni tashkil qiladi. Shunday bo'sada bu davr haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asarlarning yaratilishi Po'lotjon Domulla Qayyumov, Nabijon Qobulov, Ahmadrafiq Qambarov, Maqsudxon hoji Is'hoq Mahjuriy o'g'li, Usmonjon Shukurovning nomlari bilan bog'liqligi kuzatiladi.

Chunonchi, "20-yillar boshlarida Andijonda qo'qonqishloqlik Muhammadzokir Habibiy, Muhammadxon mahdum Mahjuriy, Avliyoxon mahdum, xayrabodlik Abdulahad Anisiy, bo'taqoralik Abduvahob Sayfiy, andijonlik Imomiddin Ulfat, Abdulhamid Hurram, Solijon qori Vose'jonov, Abdulfattoh mahdum Huzuriy singari qalamkashlar va adabiyot muhlislari davrasi asosida o'ziga xos adabiy gurung vujudga kelgan"<sup>2</sup>, – deb yozadi Ahmadrafiq Qambarov "Navodir ul-vaqoe" risolasida. Andijondagi adabiy gurungga bevosita Habibiy boshchilik qilar, nafaqat she'riyat, balki askiya, hazil-mutoyiba ham bu gurungdan joy olgandi. A. Qambarovning "Navodir ul-vaqoye" yoxud zamonamiz fozillari hayotidan lavhalar kitobining yaratilishi ham yozuvchining yoshlikdan otasining maslahatiga ko'ra Habibiy, Mahjuriy, Anisiy, Sayfiy, Ulfat, Hurram kabi zamona ilg'or kishilarining davra suhbatlarida ishtirok etadi. U yerda badiiy adabiyotning, she'riyatning, san'atning nozik ma'no qirralarini o'rgandi. Shuning uchun ushbu asarning debocha qismida "Ozmi-ko'pmi, harqalay, qirq yilga yaqin vaqt davomida Andijonning bir guruh komil va fozil odamlari bilan do'st bo'lish, birga ulfatchilik qilish baxtiga tuyassar bo'ldim. Ular Zokirjon Habibiy, Muhammadxon Mahjuriy, Abduvahob Sayfiy, Abdulahad Anisiy, Abdulhamid Hurram, Imodiddin Ulfat, Solijon Vose'jonov, Qosimjon Oxunov, Axmadbek Xomidov, So'fibek Najmuddinov, Majidxon Tursunov, Amonulloxon Valixonov – Boqir, G'anijon Abdullayev, Fattohxon Mamadaliyev singari har biri o'ziga xos olam bo'lgan betakror siymolardir"<sup>3</sup> – deb yozadi. Tarixchi A.Rafiqov yuqorida nomlari

<sup>2</sup> Qambarov A. Navodir ul-vaqoye. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 173.

<sup>3</sup> Qambarov. A. Navodir ul-vaqoye. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 3.

keltirilgan kishilarning har biri yashash sharoiti, kasbi-kori, fe'l-xususiyati bilan bir-biridan farqlansada, ularni birlashtirib turuvchi yuksak insoniy fazilatlarini, hayotni sevish, undan zavqlanish, insonlarga yaxshilik ulashish kabi oljanob hislatlarini ham e'tirof etib o'tadi.

Andijon adabiy muhiti haqida yana bir qimmatli ma'lumotlar beruvchi manba bu Usmonjon Shukurovning "G'afur G'ulom Andijonda (Xotiralar, she'rlar, maktublar, marsiyalar) to'plamidir. Ushbu to'plam G'afur G'ulom adabiy faoliyatining Andijon adabiy muhiti bilan bog'liqligini ko'rsatish barobarida, XX asr Andijon zaminida faoliyat ko'rsatgan Qori Zokir va Habibiylar atrofida Sayfiy (Abduvahob Otajonov), Mahjuriy (Muhammadxon mahsum Is'hoqov), Anisiy (Abdulahad Azizov), Ulfat (Imodiddin Qosimov), Hurram (Abdulhamid Abdurazzoqov), Boqir (Amonulloxon Valixonov) kabi zamonasining ilg'or kishilari<sup>4</sup> haqida asosli ma'lumotlar beriladi.

---

<sup>4</sup> Shukurov U. G'afur G'ulom Andijonda (Xotiralar, she'rlar, maktublar, marsiyalar). – Andijon: "Hayot" nashriyoti, 2003. – B.3.

## **HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XUDUD SALOXIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Kamilov Mirzoxid Zafarjanovich**  
BTOM tiglovchisi

Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqish va asoslash, aholi turmush farovonligi, o‘rtacha ish haqi va daromadlar darajasini oshirish hamda hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda tuman (shahar) lardagi mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatning o‘rnini muhim. Ayniqsa, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan hudud iqtisodiyotini sanoatlashtirishda tabiiy-iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi bo‘lgan mineral xomashyo resurslari muhim axamiyat kasb etadi va bu amalda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Salohiyat tushunchasi lotincha “potentia” so‘zidan olingan bo‘lib, kuch, imkoniyat degan ma’noni bildiradi.

Hudud salohiyati u yerda mavjud bo‘lgan barcha majmuaviy resurslardan samarali foydalanish orqali aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan ne’matlarni ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Hudud salohiyati tushunchasi shuning bilan birga, hududning tarkibiy elementlarini yuzaga keltiruvchi salohiyatlar tizimidan iborat.

Tuman (shahar) salohiyatiga turli ta’riflar mavjud bo‘lib, shulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Iqtisodiy salohiyat - hududning resurslari, manbalari, mablag‘lari va zaxiralari, shuningdek, aniq maqsadlarga erishnsh uchun ularni hozirgi yoki kelgusi davrda iqtisodiy jarayonga jalb qilish mexanizmlaridir (usullari va shakllari)

Geosiyosiy salohiyat - geografik joylashuv, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar va rivojlanish omillari bilan belgilanadi.

Tabiiy salohiyat - (mineral, suv, ep, hayvonot, o‘simlik va boshqa resurslar) insonni o‘rab turgan va ularning hayotiy faoliyatini ta’milash uchun foydalilaniladigan tabiiy sharoitlar. Ular jamiyatning ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga bevosita jalb qilingan tabiat kuchlaridir. Bozor sharoitida ular qiymat shakliga ega bo‘lib, hududlar

byudjetiga tushumlarni ta'minlaydi, hudud aholisi farovonligini oshirishning moddiy asosini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati - hududning moddiy-texnik bazasi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi kapitallari (mablag'lar)dir.

Demografik (mehnat) salohiyat - aholi soni, uning jinsiy va yosh jihatidan tuzilishi, aholining faol qismini, mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalg qilish imkoniyati bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy salohiyat - sog'liqni saqlash, uy-joy communal xizmatlari, savdo-sotiq, umumiyligi ovqatlanish kabi sohalardagi imkoniyatlar bilan belgilanadi.

Ma'naviy salohiyat - jamiyatning tarixiy tajribasi va an'analarini, ilm-fan, madaniyat va ta'limning holati bilan belgilanadi.

Boshqaruv salohiyati - kadrlar darajasi, boshvqaruv usullari va boshqalarda ifodalanadi.

Moliyaviy salohiyat - hududning moliyaviy resurslari va ularni jalg qilish imkoniyatlaridir.

Hudud salohiyati turlari, ularni hisoblash ko'rsatkichlari bo'yicha turlicha qarashlar shakllangan. Tuman (shahar) salohiyatini turlarga ajratishda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barcha jabhalarini qamrab olish maqsadga muvofiq. Salohiyat turlari va ko'rsatkichlarini shakllantirishda umumiyligi ko'rsatkichga chiqish tamoyili acoc qilib olindi.

Tuman (shahar) tabiiy-iqtisodiy salohiyatini quyidagi guruhlarga bo'lish va tahlil qilish mumkin.

1. Iqtisodiy salohiyat.
2. Ijtimoiy salohiyat.
3. Byudjet salohiyati.
4. Tadbirkorlik salohiyati.
5. Investitsion salohiyat.
6. Infratuzilma salohiyati.
7. Mineral xomashyo salotsipti.
8. Ep resurslari.
9. Suv resurslari.

10. Demografik va mehnat salohiyati.
11. Turizm salohiyati.
12. Innovatsion salohiyat.

Bundan tashqari, miqdor jihatdan o‘lchab bo‘lmaydigan, biroq salohiyatga sezilarli darajada ijobiy va salbiy ta’sir qiladigan geografik joylashuvi, iqlimi kabi omillar ham mavjud.

Hududning geografik joylashuvini baholashda poytaxtga yoki viloyat markaziga yaqinligi, chegara hududda joylashganligi va o‘scha yerda chegarapostlar mavjudligi hamda qo‘schni mamlakat hududidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muhitning holati va boshqa omillar inobatga olinadi.

Shuningdek, hududning transchegaraviy suv resurslariga bog‘liqlik darajasi ham hudud salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Sirdaryo va Jizzax viloyatining cho‘l zonasida joylashgan (Oqoltin, Sardoba, Paxtakor va b.) tumanlar salohiyati Qirg‘iziston Respublikasida shakillananidan suv resurslariga bog‘liq.

Hududda yirik sanoat markazlarining (aglomeratsiya) joylashganligi yoki ularga yaqinligi ham saloxiyatnn belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, Angren, Bekobod, Olmaliq va Chirchiq, Shirin, Zarafshon shaharlari, Sharg‘un shaharchasi xamda ularga tutash qishloq tumanlari. Bundan tashqari, hudud iqtisodiyotining yillar davomida shakllangan ixtisoslashuvi ham o‘scha hududning salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga kiradi.

Hududning iqtisodiy salohiyati to‘g‘risida olimlarning turli qarashlari mavjud. Masalan, hududning iqtisodiy salohiyati tabiiy resurslar, ishlab chiqarish mablag‘lari, mehnat va ilmiy-texnik salohiyat, hududda shakllangan boyliklar bilan ifodalanadi. Umuman olganda, iqtisodiy salohiyat bu - hududning resurslari, manbalari, mablag‘lari va zaxiralari xamda ularni hozirda yoki kelajakda aniq bir maqsadga erishish uchun amaliyatga joriy qilish mexanizmlaridir.

Hudndlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sharoitida tadbirkorlik innovatsiyalar, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish manbai sifatida muhim o‘rin tutadi. Tadbirkorlar innovatsiyalarni joriy etib, yangi biznes modellarini ishlab chiqish orqali hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga o‘z hissasini qo‘sishmoqda, bu esa, o‘z navbatida, aholi turmush sifatining yaxshilanishi va hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik nazariyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida biz to‘rtinchidagi davrga duch keldik, uning markazida tadbirkorning boshqaruvin rolini qayta ko‘rib

chiqish turibdi. Bu davr tadbirkorlik masalalari turli ilmiy fanlar prizmasidan o'rganilishi bilan xarakterlanadi, bu esa ushbu sohaning ko'p qirrali xususiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Tadbirkorlik nazariyasi rivojlanishining ushbu bosqichida biz tadbirkorlik faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv yondashuviga e'tibor qaratilishini kuzatamiz, bu uning evolyutsiyasining to'rtinchi bosqichining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Hozirgi vaqtida tadbirkorlikni nazariy tahlil qilish o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan ko'plab fanlarni qamrab oladi.

Ichki tadbirkorlikni joriy etish ishlab chiqarish tizimlarini tadbirkorlik yondashuviga o'tkazish, bo'limlarga innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ko'proq avtonomiyalar berish bilan bog'liq bo'lib, bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, tadbirkorlik muvaffaqiyati ko'plab omillar, jumladan bozor dinamikasi va kompaniyadagi ichki o'zgarishlar bilan belgilanadi. Tadbirkorning maqsadi foyda olish va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, bu samarali boshqaruv amaliyotini talab qiladi. Muvaffaqiyatli biznes uchun bozor talabi va taklifi, xarajatlarni optimallashtirish yo'llarini topish, erkin tadbirkorlik uchun sharoit yaratish va faoliyat natijalari bozorga kirgandan keyingina aniq bo'lishini tushunish kabi jihatlarni hisobga olish muhimdir. Bundan tashqari, kichik biznes tadbirkori noaniq bozor risklariga duch keladi.

Demak, tadbirkorlik – mustaqil tashabbus va foyda olishga intilish asosidagi faoliyat bo'lib, u intellektual faoliyatdan boshlanib, moddiy boyliklar yaratishga olib keladi.

Tadbirkorlik kontseptsiyasining asoschilaridan biri Jozef Shumpeter tadbirkorni innovator va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchisi sifatida ta'riflaydi. Shumpeterning ta'kidlashicha, tadbirkorlik "ijodiy yo'q qilish" ni o'z ichiga oladi, bu erda eskirgan tarmoqlar va ishlab chiqarish usullari yangi, samaraliroqlari bilan almashtiriladi. Bu jarayon hududlarning jadal rivojlanishiga va ularning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga xizmat qiladi.

Olimlarning ushbu nazariya va yondashuvlarida tadbirkorlikning hududi rivojlanishdagi ko'p qirrali roli alohida ta'kidlanadi. Tadbirkorlar nafaqat yangi korxonalar va ish o'rinalarini yaratish, balki mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladigan innovatsion ekotizimning shakllanishiga ham hissa qo'shmaqda.

## **КИЧИК БИЗНЕС КОРХОНАЛАРИДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ МАСАЛАЛАРИ**

**ЭРМАТОВ ДОНИЁР САИДҚУЛОВИЧ**

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги БТОМ тингловчиси

Мамлакатимиз иқтисодиётининг барқарор ва мутаносиб ривожланиши, жаҳон бозорида мустаҳкам ўрин эгаллаши, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини янада ошириш олиб борилаётган иқтисодий сиёсатнинг асосий вазифаларидан ҳисобланади. Бу эса жаҳон иқтисодиётининг глобаллашув кўлами тобора кенгайиб бораётган бир шароитда ҳар қандай конъюнктура ўзгаришлари қарши тура оладиган, ички ва ташқи бозор талабларига тезлик билан мослаша олувчи кичик бизнес корхоналари ва мос равишда уларнинг бошқарув тузилмаларини шакллантиришни тақозо этади.

Бошқарув фани ривожланишида улкан хизматлари билан танилган бир қатор хорижлик олимларнинг фикрича «Бошқарув – бу ташкилот мақсадларини шакллантириш ва уларга эришиш учун зарур бўлган режалаштириш, ташкил этиш, мотивациялаш ва назорат жараёнидир». Бу ўринда ташкилот деганда, икки ва ундан ортиқ кишиларнинг маълум бир мақсад сари бирлашувидан ҳосил бўлувчи тузилмасини тушуниш лозим. Демак, ижтимоий муносабатлар мавжуд барча турдаги тузилмаларда бошқарув жараёни амалга оширилар экан.

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида унинг асосойи категорияларидан бири бошқарувни ҳам модернизациялаш кун тартибидаги долзарб масалалардан ҳисобланади. Фикримизча, бошқарувни модернизациялашижтимоий тузилмалар мақсадларига эришиш учунрежалаштириш, ташкил этиш, мотивациялаш ва назорат жараёнларини замонавий талабларга жавоб берадиган даражада мукаммалаштиришни назарда тутади. Мазкур таърифнинг мазмунини сақлаб қолган ҳолда, бошқача кўринишида ҳам бериш мумкин: «бошқарув модернизацияси корхона фаолиятини бошқариш жараёнига янгиликларни киритиш орқали унинг самарадорлигини оширишни назарда тутувчи тадбирлар мажмуини англатади».

Бозор иқтисодиёти шароитида, айниқса унинг тараққиёт топган босқичида корхоналар бошқарувига янгиликлар киритиш, инновацион тадбирларни амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга. Бошқарувни модернизациялаш – замонавий бошқарув тамойилларига амал қилиш демакдир. Бошқарувни модернизациялаш, деганда янги ғояларни қўлга киритиш, баҳолаш, ҳамда ташаббускорларни тақдирлаш назарда тутилмоғи даркор.

Ташаббускорлик учқунларини қўллаш бошқарувнинг бевосита функциясига айланмоғи керак. Бу функцияга ноанъанавий қарорлар ва «ғаройиб» ғоялар туғилиш жараёнларини излаб топиш, ҳамда уларни амалга ошириш учун шароит яратиб бериш ҳам киради.

Янгиликка интилган бошқарув ностандарт шаклдаги тадбиркорлик, инновацион фаолиятга йўл очиб беради. Бу маҳсус инновацион бўлинмаларни, ташкилотлар таркибида таваккалчилик ташаббусига эга эркин гурӯҳ, техник эксперталар, микро бўлимлар ташкил қилишни назарда тутади.

Замонавий бошқарув тамойилларидан бири – бу корхоналарда вақти-вақти билан бошқарув ва ишлаб чиқариш таркибини қайта ташкил қилиш тамойилидир. Амалиётнинг кўрсатишича, ташкилотда янгиликларни бошқарувда киритиб бориш жуда муҳим саналади. Бу каби қайта ташкил қилиш ҳар 3-5 йилда, ҳозирги шароитда эса ундан ҳам тезроқ, 2-3 йилда амалга оширилиши талаб этилади. Бошқарувда янгиликларни жорий эта олмаган корхоналар ўз обрўларини йўқота борадилар, бозорда ўз ўринларини қучлироқ рақобатчиларга бўшатиб беришга мажбур бўладилар.

Бошқарув жараёнида янгиликларни жорий этиш, энг аввало, бошқарув тизими ва ундаги бошқарувчилар фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Бошқарув тизимини такомиллаштириш ташкилот фаолият юритувчи муҳит, давр ва ҳар бир ташкилотнинг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ эканлиги тўғрисида мутахассислар ўз фикрларини билдириб ўтишган.

Ташкилот бошқарув тизими тўғрисидаги таълимотнинг ривожланишини таърифлаганда икки хил ёндашув мавжудлигини таъкидлаш мумкин. Биринчи ёндашув ташкилотни тизим сифатида тавсифлаб, ташкилот бошқаруви тушунчаси ривожини ёпиқ тизим тасаввуридан очиқ тизимга қараб ҳаракатланишини назарда тутади. Иккинчи ёндашув эса ташкилот табиатинирационалликдан ижтимоийликка қараб йўналганлигини тавсифлайди.


Ўтган асрнинг 60-йилларигача ташкилот бошқарувида мавжуд муаммолар ёпиқ тизимлар нуқтаи назаридан келиб чиқсан ҳолда ҳал қилинар эди. Амалий муҳит, рақобатчилик, сотиш ва бошқа шу каби ташкилот ташқи муҳитини ҳосил қилувчи масалалар деярли тан олинмас эди. Аммо, бозор иқтисодиётининг ривожланиши билан ташкилот бошқаруви ҳақидаги тасаввур ҳам ўзгариб борди. Ташкилотдаги ички ўзгаришлар аслида ташқи муҳит таъсирида юз бериши мумкинлиги аниқланди. Шундан сўнгина ташкилот бошқаруви таълимоти намоёндалари ташкилотни очиқ тизим сифатида кўра бошладилар.

Ташкилот табиатини рационалликдан ижтимоийликка қараб йўналганлигини тавсифловчи қарашлар ўтган асрнинг 70-йилларидан бошлаб ривожлана бошлади. «Рационал фикрлаш» ташкилотнинг аниқ келажаги мавжудлиги, унинг мақсадлари аниқ белгилаб олинганлигини билдиради. Бу

